



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА
МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ПЕДАГОГИКА ФАКУЛЬТЕТИ
МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ КАФЕДРАСИ**



**“КАТТА ГУРУҲ МАШҒУЛОТЛАРИДА
ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАР ОРҚАЛИ
ВАҚТ ТАСАВВУРЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ”
мавзусидаги**

БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШИ

БАЖАРДИ: Мактабгача таълим
йўналиши битирувчи 4 - курс
талабаси Хўжақулова.Ю _____
ИЛМИЙ РАҲБАР:
Ўқитувчи Йўлдошева Ф.М. _____

Термиз – 2015

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ПЕДАГОГИКА ФАКУЛЬТЕТИ
МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ КАФЕДРАСИ
5111800- Мактабгача таълим йўналиши бўйича
бакалавр даражасини олиш учун

**“Катта гуруҳ машғулотида педагогик технологиялар
орқали вақт тасаввурларини шакллантириш”
мавзусидаги**

БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШИ

**Бажарди: Мактабгача таълим
йўналиши битирувчи 4-курс
талабаси Хужакулова Юлдуз
Абдухоликовна
Илмий раҳбар: Йўлдошева.Ф.М**

**Битирув малакавий иши кафедрадан дастлабки
химоядан ўтди.**

19-сонли баённомаси “27” май 2015 йил

**Термиз давлат университети Педагогика факультети Мактабгача таълим кафедрасининг 19-сонли йиғилиши баённомасидан
КЎЧИРМА**

27.05.2015 й.

Термиз ш.

**Қатнашдилар: Кафедранинг барча аъзолари
КУН ТАРТИБИ:**

1.Мактабгача таълим йўналиши битирувчи 4-курс талабаси Хужакулова Юлдуз Абдухолиқовнанинг “Қатта гуруҳ машғулотида педагогик технологиялар орқали вақт тасаввурларини шакллантириш.”мавзусидаги битирув малакавий иши муҳокамаси.

ЭШИТИЛДИ:

Ушбу мавзу юзасидан илмий раҳбар ўқ. Йўлдошева сўзга чиқди ва ишнинг мазмуни, тадқиқот натижалари, битирув малакавий ишнинг меъёрий хужжатлар асосида битирув малакавий иши ёзилганлигини давлат аттестация талабларига мос келишлигини, илмий янгиликлари адабиётлардан фойдаланган ҳолати мавзунинг долзарблиги мақсад ва вазифалари талаба томонидан етарли даражада очиб берилганлигини, шу сабабли мазкур битирув малакавий ишни ҳимояга тавсия қилиш мумкинлигини билдирди.

СЎЗГА ЧИҚДИЛАР:

Ўқ. М.Норбошева ва кат.ўқ хасановалар иш билан танишишганлиги, унинг хулосалари ва янгиликлари ҳақида ўз фикрларини билдириб, битирув малакавий ишининг тайёрлиги сабабли ҳимояга тавсия этишни таклиф этдилар.

ҚАРОР ҚИЛАДИ:

1.Мактабгача таълим йўналиши битирувчи 4-курс Хужакулова Юлдуз Абдухолиқовнанинг “Қатта гуруҳ машғулотида педагогик технологиялар орқали вақт тасаввурларини шакллан- тириш.”мавзусидаги битирув малакавий иши яқунланган деб топилсин.

2. Битирув малакавий иши ҳимоя учун тавсия этилиши факультет Илмий кенгашидан сўралсин.

Йиғилиш раиси:
Йиғилиш котиби:

доц М.О.Норбошева
ўқ. Г.Химматова

Термиз давлат университети Педагогика факультети Илмий Кенгаши
йиғилишининг № 10 -сонли қароридан
КЎЧИРМА

30.05.2015 й.

Термиз шаҳар.

**Қатнашдилар: Факультет Илмий кенгаш аъзолари
КУН ТАРТИБИ:**

1. Бошланғич таълим ҳамда мактабгача таълим йўналишлари кундузги бўлим битирувчиларининг 2014-2015 ўқув йилида бажарган битирув малакавий ишлари Низом талаблари асосида ёзилганлигини ҳисобга олиб битирув малакавий ишларини ҳимояга тавсия этиш ҳақида.

ЭШИТИЛДИ:

1.Мактабгача таълим йўналиши битирувчи 4-курс талабаси Хужакулова Юлдуз Абдухолиқовнанинг **“Катта гуруҳ машғулотида педагогик технологиялар орқали вақт тасаввурларини шакллантириш”** мавзусидаги битирув малакавий иши Низом талаблари асосида ёзилганлигини ҳисобга олиб, давлат аттестацияси комиссиясида ҳимоя қилишга тавсия этилди.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, факультет **ИЛМИЙ КЕНГАШИ ҚАРОР ҚИЛАДИ:**

1.Мактабгача таълим йўналиши битирувчи 4-курс Хужакулова Юлдуз Абдухолиқовнанинг **“Катта гуруҳ машғулотида педагогик технологиялар орқали вақт тасаввурларини шакллантириш”** мавзусидаги битирув малакавий иш ҳимояга тавсия қилинсин.

АСОС: Мактабгача таълим кафедраси йиғилишининг баённомаси

(27 .05.2015.№19).

Йиғилиш раиси:
Йиғилиш котибаси:

доц. М.Мирзаев
ўқ. Л.Мухторова

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

Педагогика факультети

5111800- Мактабгача таълим йўналиши

Битирувчиси Хужақулова Юлдуз Абдухолиқовнанинг “Катта гуруҳ машғулотларида педагогик технологиялар орқали вақт тасавурларини шакллантириш.” мавзудаги битирув малакавий ишига ДАК нинг

ХУЛОСАСИ

Термиз давлат университети ДАК Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги БМИни бажариш ҳақидаги 31.12.12. йил 362-сонли буйруғи билан тасдиқланган Низомга асосан куйидагиларни аниқлади:

№	Мезонлар	Максимал балл	Талабанинг тўплаган бали
1	БМИ нингҳажмваталаббуйичарасмийлаштирилганлиги	0-10 балл	____-балл
2	Мавзунингдавлатва университет грант дастуриасосидаёкидолзарбмуаммоларбуйичатанланганлиги	0-8 балл	____-балл
3	Мавзунингдолзарблигинингасосланганлиги	0-7 балл	____-балл
4	Мақсад вавазифаларнинганиқиқодаланганлиги	0-7 балл	____-балл
5	БМИ бажаришда илмий текшириш методлардан фойдаланганлик даражаси	0-7 балл	____-балл
6	Олинганнатижаларнингянгилиги ва ишончлилик даражаси	0-8 балл	____-балл
7	БМИ нинг хулоса қисмида ишлаб чиқаришга тавсия берилганлиги	0-6 балл	____-балл
8	Битирувчининг мавзу буйича олинган натижаларини танқидий баҳоланганлиги даражаси	0-8 балл	____-балл
9	Ишнингилмий характери	0-8 балл	____-балл
10	Адабиётлардан фойдаланилганлик даражаси	0-6 балл	____-балл
11	Битирувчининг маърузасига баҳо	0-10 балл	____-балл
12	Берилган саволларга жавоблари	0-8 балл	____-балл
13	БМИ ни ташқи тақризчи томонидан баҳоланиши	0-7 балл	____-балл
	Жами:	100 балл	____-балл

ДАК раиси _____

Аъзолари _____

мухрўрни)

Сана _____ « _____ » _____ 2015 й.

Термиздавлатуниверситети

Педагогикафакултет Мактабгачатаълимкафедраси

Мактабгача таълим йўналиши бўйича битирувчи курс талабасининг битирув малакавий ишлари тавсияларини ўқув жараёнларига қўлланиши бўйича.

ДАЛОЛАТНОМА

Термиз шаҳри.

2015 й. “27” май.

Талаба Хужакулова Юлдуз Абдухолиқовна

“Катта гуруҳ машғулотида педагогик технологиялар орқали вақт тасаввурларини шакллантириш”

Илмий раҳбар: ўқ. Йўлдошева

Битирув малакавий ишининг натижалари боблар ва параграфлар бўйича бетлар кўрсатилган ҳолда фаннинг маъруза матнларида, амалий машғулотлар бўйича масалалар тўпламларида, лаборатория компьютер ишларида ҳамда диссертация ёки кейс стадиялар тайёрлашда фойдаланишини аниқ кўрсатиш керак.

1.Маъруза матнларида (бетларини кўрсатинг): _____

Амалий машғулотлар бўйича масалалар тўпламларида (бетларини кўрсатинг) _____

3.Лаборатория ва компютеришларида (бетларини кўрсатинг) _____

4.Кейс стадияларда (бетларини кўрсатинг) _____

Комиссия раиси _____

Аъзолари: _____

1. _____

2. _____

3. _____

MUNDARIJA:

Kirish.

I Bob. Maktabgacha yoshdagi bolalarga pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali vaqt tasavvurlarini shakllantirishning nazariy asoslari.

1.1 Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda vaqt tasavvurlarini rivojlantirishni

1.2. Maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....

1.3. “ Bolajon” dasturida katta guruh bolalarining elementar matematik tasavvurlarini shakllantirish mazmuni.....

II Bob. Maktabgacha ta'lim yoshida vaqt tasavvurlarini shakllantirish usul va vositalari.

2.1 Katta guruhda vaqt tasavvurlarini shakllantiruvchi mashg`ulotlar tashkil etish.....

2.2 Tajriba natijalari tahlili va xulosasi.....

Xulosa va tavsiyalar.....

Adabiyotlar ro'yxati.....

Ilovalar.....

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta'lim berish jarayonini takomillashtirishning asosiy vazifalaridan biri bo'lajak pedagogning ilmiy va uslubiy ta'minlanganligini, uning kasbiy tayyorgarligini oshirishdan iborat. Maktabgacha yoshdagi bolalarda miqdor va son, narsalarning kattaliklari va shakli, geometrik figuralar, fazo, vaqt haqidagi tushunchalarni shakllantirish uchun bir xil harakat usullarini har xil vaziyatlarda va har xil ko'rsatma materiallar bilan ko'p martalab aytib ko'rsatish, ularni bolalar o'zlashtirishlariga imkon beradi.

Matematik bilimlar bolalarga, ular nimani bilib olganliklari va nimaning uddasidan chiqa olishlarini hisobga olgan holda, aniq sistema va ketma-ketlikda beriladi. Bolalarning matematik tushunchalarini muvaffaqiyatli o'zlashtirishi, ularning idrokini, ya'ni sensor tuygularini ustirish bilan bevosita bog'liqdir.

Umumlashtirish va abstraktlashtirish kobiliyati real predmetlarning xususiyatlarini aniqlash va shu xususiyatlarga qarab mazkur predmetlarni bir-biriga taqqoslash va gruppalariga ajratish asosida o'sib boradi. SHuning uchun bola maktabga borgunga kadar unda matematik tasavvurlarni shakllantirish uchun bolalar bogchasidagi barcha o'quv-tarbiya ishlari bilan o'zviy ravishda bog'lab maxsus ish olib boriladi.

Matematik tushunchalarni rivojlantirishda bo'lgan barcha izlanishlar ikki asosiy yo'nalishda olib borilmoqda.

Birinchi yo'nalishda matematik tushunchalarning o'ziga xos xususiyatlari ta'riflanadi. Shu nuqtai nazardan muammolarni o'rganishga ko'p olimlarning ishlari bag'ishlangan. Ularda bir necha g'oyalar aniq aks ettirilgan:

a) g'oyalardan bin — bolalarning amaliy faoliyati bajarilishidagi ayrim belgilar ularning har xil birikmalarini ajratib ko'rsatmoqda, ya'ni amaliy masalalarni mustaqil ravishda tuzmoq, bajarish, ijodiy xarakterdagi masalalarni echish, aniq va yashirin jarayonlarning funkstional bog'lanishini tushungan holda bajarish va hokazo;

b) izlanishlarning ikkinchi guruhi matematik tushunchalarni shakllantirishning xususiyatlarini bilim boyligi va uni o'zlashtirish darajasi orqali izohlashni o'z ichiga oladi;

d) uchinchi — matematik tushunchalarni shakllantirishning asosini tarbiyachilarning turli xil (masalan, tushunchalar yig'indisini: qo'shmoq, mulohaza qilmoq, mantiqiy bog'lanishni aniqlamoq, bilmoq) masalalarni echishda namoyon bo'lgan umumiy qobiliyatlari bilan bog'laydi.

Ikkinchi yo'nalishdagi izlanishlar matematik tushunchalarni shakllantirishning mexanizmi, o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va tushuntirishga bag'ishlangan. Bunda matematik tushunchalarni shakllantirishni shaxs xususiyatlari (kasbga bo'lgan qiziqish, shaxs uchun ijodiy fikrlashning ahamiyati, shaxsning yoshiga xos bo'lgan xususiyatlar) bilan bog'lashga harakat qilingan.

Bolada matematik tushunchalar shakllangan hisoblanadi. Agar masalani echishdagi yangilikni, masalani qiziqarli echish uslubini, doim qo'llab kelgan standart uslublaridan voz kechib, masalaning yangi echimlarini, muammoning asosiy bog'lanish mohiyatini anglash va uni echish uchun turli usullarni topish, amaliy masalalarni echish muammolaridan chiqish, oldindan aytib berish qobiliyatlariga ega bo'lsa, matematik tushunchalar rivojlangan hisoblanadi.

Matematik bilimlar bolalarga ma'lum sistema va izchillikda berilishi, bunda yangi bilim kamroq miqdorda, ya'ni bolalar o'zlashtirib oladigan darajada bo'lishi kerak. SHuning uchun xam bir vazifa bir qancha mayda kislmlarga bulinib, ular birin ketin o'rganib boriladi.

Tarbiyachi har bir yosh gruppasining dasturisi kandy tuzilganini bilishi lozim. Bu unga o'z guruhidagi bolalarning matematikaga doir bilim darajalarini aniqlash uchungina emas, balki maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda boshlang'ich matematik tasavvurlarni o'stirish yuzasidan olib boriladigan barcha ishlar sistemasida har bir mashg'ulotning qandy muhim rol o'ynashi va o'rin egallashini ko'z oldiga keltirish uchun ham imkon beradi.

Matematik tasavvurlarni shakllantirish yuzasidan olib boriladigan ishning

asosiy formasi – *mashg‘ulotdir*.

Dastur vazifalarining ko‘pchilik qismi mashg‘ulotlarda hal qilinadi. Bolalarda ma’lum izchilikda tasavvurlar shakllantiriladi, zarur malaka va ko‘nikmalar xosil qilinadi. Mashg‘ulotlarda va kundalik xayotda didaktik uyinlardan hamda o‘yin-mashqlardan keng foydalaniladi. Mashg‘ulotlardan tashqari vaktlarda o‘yinlar tashkil qilib, bolalarning matematik tasavvurlari mustaxkamlanadi, chuqurlashtiriladi va kengaytiriladi. Maktabgacha ta’lim muassasasida amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiya ishini davr talabi darajasida olib borish maksadida «Bolalar bogchasida ta’lim-tarbiya dasturi» to‘zilgan. O‘zbekiston xalk ta’limi Vazirligi bu dasto‘rni respublikamizning o‘ziga xos tomonlarini: iklimi, jugrofiy, iktisodiy, madaniy, milliy sharoitlarini xisobga olib, uni kayta ishlab chikdi. Dastur tugilgandan to etti yoshgacha bo‘lgan bolalar egallashi lozim bo‘lgan bilim va malakalar xajmini o‘z ichiga oladi. U maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning psixologik-fiziologik va o‘ziga xos xususiyatlarni xisobga olgan xolda ularni xar tomonlama kamol toptirishni nazarda tutadi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiyani pedagog-tarbiyachi amalga oshiradi. U pedagogik jarayonda markaziy o‘rinni egallaydi. SHuning uchun tarbiyachi o‘z soxasini chukur bilishi, xar xil metodik vositalarni yaxshi egallagan, puxta pedagogik psixologik tayyorgarlikka ega bo‘lishi kerak. SHu bilan bir qatorda mutaxassislik bo‘yicha fanlarni jumladan «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy Dasturini, maktabgacha tarbiya pedagogikasi, «Uchinchi ming yillikning bolasi tayanch dasturi»ni, Davlat ta’lim standartlarini, bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi fani va boshkalarni puxta egallagan bo‘lishi lozimdir

Maktabga borish davriga kelib bolalar to‘plam va son, shakl va kattalik xakida o‘zaro boglangan bilimlarni nisbatan ko‘proq egallagan, fazoda va vaqtni orientastiya qila bilishni o‘rgangan bo‘lishlari zarur. Bularning hammasi bolalarning aqliy rivojlanishlariga va maktabda o‘qishlarining muvoffaqiyatli kechishi imkoni beradi, bu esa mavzuning dolzarb ekanligini belgilaydi.

Tadqiqod maqsadi: Katta guruh mashg'ulotlarida pedagogik texnologiyalar orqali vaqt tasavvurlarini shakllantirish.

Tadqiqot vazifalari: Bitiruv malakaviy ishimizda quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan:

A) Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda vaqt tasavvurlarini tarkib toptirish tushunchalarini ilmiy adabiyotlardan o'rganish.

B) Ilmiy adabiyotlardagi ma'lumotlar asosida nazariy qismni itayyorlash.

B) Maktabgacha ta'lim muassasasida pedagogik texnologiyalar foydalanib mashg'ulotlar tashkil etish.

v) Tadqiqot natijalarini tahlil qilish,

g) Tegishli xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'ekti: Termiz shahar 23- sonli maktabgacha ta'lim muassasasi katta guruh tarbiyalanuvchilari.

Tadqiqot metodlari: Malakaviy ishimizni tayyorlashda quyidagi metodlardan foydalandik.

1) Tegishli ilmiy, uslubiy adabiyotlarni o'rganish

2) Kuzatish.

3) Suhbat.

4) Savol javob.

5) Katta guruh bolalarida vaqt tasavvurlarini tarkib toptiruvchi mashg'ulotlar ishlanmasini tayyorlash .

Tadqiqotning amaliy va ilmiy ahamiyati: Ushbu malakaviy ishimizda, bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish muammosining psixologik-pedagogik asoslari, boshlang'ich matematik tushunchalarni rivojlantirish muammolari, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda ilk tasavvurlarni rivojlantirishni tashkil qilish, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda vaqt tushunchalarini shakllantirish, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning vaqt haqidagi tasavvurlarini tarkib toptirish usullari va vositalari keng tarzda yoritib berilgan. Bu ma'lumotlardan maktabgacha ta'lim muassasalarida murabbiylar matematika mashg'ulotlarida foydalanishlari mumkin.

Bitiruv malakaviy ishi tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, asosiy qism boʻlari, birinchi bob uchta paragraf, ikkinchi bob amaliy qism boʻlib, unda ikkita paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan iborat .

I BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ORQALI VAQT TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1 Maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish .

Milliy dasturni amalga oshirishning boshlanishi yangi talablarga javob beruvchi zamonaviy maktabgacha ta'limdir. Tabiiyki, bunday islohlashgan maktabgacha ta'lim muassasasining tarbiyachisi yuksak bilim va ma'naviy kasbiy faoliyatga ega bo'lishini talab etadi.

Jahon hamda jamiyatda har bir ota – ona o'z farzandini eng bilimdon, yuksak odob egasi, mahoratli ijodkor, tadbirkor tarbiyachiga berishni istaydi. Maktabgacha ta'lim sohasi tarbiyachilarni talabalik davridan boshlab maktabgacha ta'limning asl mohiyati, bola va tarbiyachining hamkorlik faoliyati ekanligini o'rgatadi. Bola tarbiyachisining maqsadi, bolaning ruhiyatini rivojlanish qoidalariga amal qilishni talab etadi.

O'z kasbini mohir ustasi bo'lish uchun tarbiyachi maktabgacha ta'lim pedagogika fanini chuqur bilishi lozim.

Maktabgacha ta'lim o'quv tarbiya faoliyatini tashkil qilish vosita va usullarini, o'quv tarbiya jarayonida kelib chiqadigan muammolar va uni echishni to'g'ri hal qila bilish, innovatsion texnologiya usullaridan foydalanish, qiyinchiliklarni to'g'ri echimini topishga yo'naltiradi.

Maktabgacha ta'lim eng muhim asosiy pedagogik munosabatlar sabablarini aniqlaydi, uni pedagogik jarayonda o'rganadi. Maktabgacha ta'lim bo'lajak tarbiyachilarni maktabgacha ta'lim muassasalariga tarbiyachilik faoliyatiga tayyorlaydi. Maktabgacha ta'limning nazariy asoslari: Inson kamolotiga qaratilgan, xalq yaratgan boy tajriba, ilmiy tadqiqotga doir nazariy va metodik manbalarga Markaziy Osiyo va jahon mutafakkir, ma'rifatparvar pedagog olimlarning

asarlariга suyangan holda komil insonni tarbiyalashning qonun, qoida va tamoyillariga asoslanadi.

Maktabgacha pedagogikaning milliy asoslari: Ta'lim - tarbiya masalalari, har bir millatning milliy merosiga, umumbashariy qadriyatlariga bog'langan holda bog'cha yoshidan boshlab o'zligini anglash, erkin fikrlash, g'urur tuyg'ularini shakllantirishga qaratiladi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan- kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilganda pedagoglar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. Pedagog bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. SHu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida pedagog asosiy figuraga aylanadi.

Pedagog olimlarning yillar davomida ta'lim tizimida

Nega o'qitamizq

Nimani o'qitamizq

Qanday o'qitamizq degan savollarga javob izlash bilan bir qatorda

Qanday qilib samarali va natijali o'qitish mumkinq degan savoliga javob beradilar. Bu esa olim va amaliyotchilarni o'quv jarayonini texnologiyalashtirishga, ya'ni «O'qitishni ishlab chiqarishga oid aniq kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonga aylantirishga urinib ko'rish mumkin» degan fikrga olib keladi. Bunday fikrning tug'ilishi pedagogika fanida yangi pedagogik texnologiya yo'nalishini yuzaga keltiradi. Bugungi kunda ta'lim muassalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonda pedagogik texnologiyalardan foydalanishiga alohida e'tibor berilayotganligining asosiy sababi quyidagilardir:

Birinchi dan: pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida. «Ta'lim to'risida»gi Qonun va

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Ikkinchidan: pedagogik texnologiyalar o'quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan: pedagogik texnologiya pedagogni ta'lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo'lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

To'rtinchidan: pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo'llashga asoslanganligi sababli, ularning qo'llanilishi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarini amalga oshirishni ta'minlaydi.

O'quv- tarbiya jarayonida pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etilishi pedagogning bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa tinglovchilardan ko'p mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab qiladi.

Har qanday pedagogik texnologiyalarning o'quv- tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy jihatdan kelib chiqqan holda tinglovchini kim o'qitayotganligi va pedagog kimni o'qitayotganiga bog'liq.

Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolarga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini—oshirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammoarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslarga aylanadi.

SHuning uchun ham ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari-interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta'limda qo'llanilishiga oid bilimlar, tajriba talaba yoki o'quvchilarning bilimli va etuk malakaga egaligini ta'minlaydi.

Innovatsiya (inglizcha innavation)—yangilik kiritish, yangilik demakdir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba yoki o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.

Interfaol («inter»- bu o'zaro, «akt»- harakat qilmoq)- o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishni anglatadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, o'qitishning interfaol uslubiyotlari-bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil qila bilishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilinadilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol darslarda pedagogning o'rni qisman tinglovchilarning faoliyatini dars maqsadlariga yo'naltirishga olib keladi. Bu uslublarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va tinglovchilar birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga:

- pedagoglarning jarayonga bo'lgan qiziqishlarining doimiyligini ta'minlashi;
- mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirilishi;
- pedagoglarning hamkorlikdagi faoliyatini doimiy ravishda tashkil etishlari kiradi.

Ushbu paragrafning bayonini uzoq vaqtlarda aytilgan rivoyatdan boshlaymiz. Kunlardan bir kun ko'l bo'yida qorni och qolgan bir kishi baliq tutib turgan donishmandga duch kelibdi va unga murojaat qilib: «Men ochman, menga yordam ber!» debdi. Donishmand quyidagicha javob beribdi: «Men senga baliq berishim mumkin, sen tez to'yasan va biroz vaqt o'tgach, xuddi shunday yana och qolasan va mendan yana yordam so'raysan. Men senga qarmoq berishim mumkin, lekin u qachondir sinib qolishi mumkin, unda sen menga yana murojat qilishingga to'g'ri keladi, YAxshisi, men senga qarmoq yasashni o'rgataman, bu uzoq va qiyin, lekin keyinchalik senga mening yordamimga muxtoj bo'lmaysan. O'z yo'lingni tanla.»

YUqorida keltirilgan rivoyatdan kelib chiqadigan xulosa shuki, yaxshi pedagog o'quvchilariga «qarmoq yasashni» o'rgatishi va aqlli o'quvchi esa uni

o'rganishi lozim. O'quvchilar «qarmoq yasashni» qanchalik tez va mustahkam o'rganib olsalar, ular shunchalik birovlariga muxtoj bo'lmasdan o'z «ovlariga» ega bo'ladilar. Mana shunday vazifalarni amalga oshirishda yangi interfaol va noan'anaviy pedagogik texnologiyalar juda qo'l kelishini tadqiqotchilar tomonidan turli ta'lim muassasalarida o'tkazilayotgan ko'pgina pedagogik tajribalarning natijalari tasdiqlamoqda. SHuning uchun ham ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan professor o'qituvchilar o'z sohalar bo'yicha olib borayotgan mashg'ulotlarida innovatsion texnologiyalarni o'z o'rnida qo'llashni bilishlari o'ta zarur. Pedagogika sohasining umumiy maqsadi jamiyatning eng umumiy maqsadi, ya'ni g'oyasidan kelib chiqib, ajralmas qismi hisoblanadi.

Maorif sohasining umumiy maqsadi huquqiy demokratik davlat hamda odil fuqorolik jamiyati talablariga javob beruvchi kishini tarbiyalab berishdan iboratdir.

O'zbekistonda mualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, erkin, ma'rifatli va demokratik davlat fuqorolari quyidagi ijtimoiy sifatlarga ega bo'lishi kerak:

- aqliy, mustaqil fikr yurita oladigan;
- mehnatsevarlik, mehnat kishini ijtimoiy ehtiyojlariga aylanganligi;
- insonlarga nisbatan mehr-shafqatli, hurmat tuyg'ularini o'zida mujassam eta olishi;
- bilimli, diniy, dunyoviy va fazoviy bilimlarni ko'p va chuqur egallab olib, ularni hayotga qo'llay olishi;
- sog'lom- jismoniy, ruhiy va ijtimoiy salomat;
- milliy g'ururga ega ajdodlarimizning moddiy va ma'naviy me'roslarini egallab, ular bilan faxrlanuvchi va ularni boyitishga hissa qo'shuvchi;
- vatanparvar, vatan uchun, xalq uchun fidokorona mehnat qiluvchi, ularni muhofaza qila oluvchi va zarur bo'lsa ular uchun jonini qurbon qiluvchi;
- baynalminal-o'z millati qatorida boshqa millatlarni hurmat qiluvchi;
- insonparvar, inson zotiga faqat yaxshiliklar yo'llovchi va ular uchun ezgu ishlar qiluvchi;

- jasur va shijoatli - har bir ishiga mardona kirishib, uni shijoat bilan oxiriga etkazuvchi.

Bu o'nta ijtimoiy sifat jamiyat ehtiyojidan kelib chiqqan davlat buyurtmasi bo'lib, ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatayotgan har bir inson ulardan umumiy metodologik asos sifatida foydalanishi kerak. Bu umumsohaviy metodologiyaning birinchi qismi hisoblanadi.

Umumiy metodologiyaning ikkinchi qismini o'qituvchi (pedagog) larga yaxshi tanish bo'lgan didaktika tamoyillari tashkil qiladi.

Ularga: ta'lim-tarbiya jaryonida ta'lim oluvchi diqqatini berilayotgan bilimga qaratib, uni jarayon oxirigacha saqlab turish; har bir bilimni ilmiy asoslab berish; bilim berishda o'quvchi (talaba) ning imkoniyati va yosh xususiyatlaridan kelib chiqish; bilim berishda mumkin qadar ko'proq ko'rgazmali vositalardan foydalanish; bilim berishda muntazamlilik va davomiylikni saqlash; o'quv jarayonini mehnat jarayoni bilan qo'shib olib borish; ta'lim va tarbiyaning tizimli, izchil bo'lishi va uning birligi tamoyillari kiradi.

Har bir faoliyatning eng umumiy, umumiy metodologik asoslari bilan bir qatorda xususiy metodologiyasi ham mavjud. Bizning misolda, bu muayyan o'quv predmeti, muayyan mavzu va muayyan darslarni o'tishga kutilgan maqsad ko'rsatkichlari bilan pedagogik texnologiyaning besh tamoyillari hisoblanadi.

Pedagogik jarayonda amal qilinishi shart bo'lgan uch turdagi metodologik asosni ko'rib chiqdik. O'quv jarayoni bilan shug'ullanuvchi har bir o'qituvchi (pedagog), tarbiyachi va boshqalar ushbu uch metodologik asosning hammasiga birday amal qilishi shart. Faqat shundagina ular kutilgan natijaga erishishi mumkin.

Insonni har tamonlama barkamol etib tarbiyalash, xalkimizning azaliy orzusi bulib, ajdodlarimiz ma'rifat, ma'naviyat va madaniyat kandy kilyb yosh avlodga urgatish – ularni komillikka etaklash yullari, konun-koidalarini muttasil izlaganlar. Bu esa pedagogika fanini maydonga kelishiga sabab bulgan. CHunki insonni ma'rifatli va ma'naviy komillikka erishishi pedagogika fanining etakchiligida amalga oshiriladi.

Pedagogika - grekcha suz bulib, «bola etaklovchi» - manosini bildiradi. Insonlarni ma'rifiy va ma'naviy barkamollikka munosabatlarni uzgartirib borishi natijasida pedagogika fani xalk orasida uz mavkeiga ega buldi. SHu tarika insonni tarbiyalovchi fan sifatida pedagogika dunyoviy fanlar tizimi katoridan alohida urin egallagan. Uning bosh masalasi tarbiyadir.

Ota-bobolarimiz azal-azaldan bola tarbiyasiga alohida e'tibor karatganlar. Imom al-Buxoriy, Iso at-Termiziy, Beruniy, Az-Zamaxshariy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid – CHulpon singari ulug' olimu adiblar, fozilu-fuzalolar ta'lim-tarbiya borasida kup asarlar bitganlar. SHark pedagogikasining asoschilari Farobiyning «Fozil odamlar shahri», YUsuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilig» asari, Alisher Navoiyning «Maxbub ul-kulib»i, Kaykovuchning «Qobusnoma»si kabi asarlar bunga dalildir.

Pedagogik fikrni rivojlanishida ulug' rus pedagogi K.D.Ushinskiyning ham hissasi katta. Uning nazariy karashlari «Inson tarbiya predmeti sifatida» degan mukammal asarida bayon kilib berilgan. «Ona tili», «Bolalar dunyosi» kitoblari barchaga yaxshi ma'lum bulib, bolalarning bir necha avlodni shu kitoblar vositasida ta'lim olgan.

Pedagogika fan sifatida rivojlanishida chex pedagogi olimi YAn Amos Komenskiy (1592-1670) ning hissasi katta buldi. Uning «Buyuk didaktika» asari hakli ravishda pedagogika sohasida yaratilgan birinchi ilmiy asari hisoblanadi.

Bola tug'ilgan kundan boshlab, uni maktabga borguniulgan davrda har tomonlama etuk barkamol etib tarbiyalash konuniyatlarini urganish maktabgacha ta'lim pedagogikasining muvzuidir. U maktabgacha ta'lim muassasalari va oilaning tarbiyaviy ta'sir kursatishi birligini, maktabgacha ta'lim muassasasi va maktab ishidagi alokadorlikni, bolalarni maktabda ukishga tayyorlashni ta'sinlab, ijtimoiy maktabgacha tarbiya sharoitida tarbiya va ta'lim berish ishlarining vazifalarini, tamoyillarini, mazmunini, metodlarini, shakllarini va uni tashkil etishni ishlab chikdi. Maktabgacha ta'lim tizimida uning ajralmas kismi bulib shakllandi.

Maktabgacha ta'limning nazariyasi va amaliyoti maktabgacha yoshdagi bolalarga har tomonlama tarbiya berishning maksadi, bolaning imkoniyatlari va uni ilk yoshdan boshlab tarbiyalashning roli, maktabgacha tarbiyani hayot, zamon bilan bog'lab olib borishning zarurligi, bola shaxsining shakllanishida ijtimoiy muhitning hal kiluvchi ahamiyatiga ekaligiga asoslanadi.

Maktabgacha ta'lim ijtimoiy tarbiya tajribasini sinchkovlik bilan urgandi. Bu esa maktabgacha ta'lim muassasalari ishini takomillashtirishga yordam beradi.

Maktabgacha ta'limning predmeti:

- Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim tarbiyasiga kuyiladigan davlat talablariga suyangan holda faoliyat yuritish;
- Maktabgacha ta'lim pedagogikasi bog'chalardagi ta'lim – tarbiya mazmunini takomillashtirish;
- Ta'lim – tarbiya jarayonida qo'llaniladigan metod va usullarni axborot texnologiyalari asosida tashkil kilish;
- Bolalarni jismoniy, akliy, ruxiy sog'lig'ini ta'minlashda ukituvchi – tarbiyachi mahorati;

Maktabgacha ta'lim nazariyasi va amaliyotining maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarga har tomonlama tarbiya berishga bolaning imkoniyatlari va uni ilk yoshdan boshlab tarbiyalashning roli maktabgacha tarbiyani xayot, zamon bilan olib bog'lab olib borishning zarurligi bola shaxsining shakllanishida ijtimoiy muhitning hal kiluvchi axamiyatiga asoslanadi.

Maktabgacha ta'limning vazifalari:

- Maktabgacha ta'lim soxasidagi pedagogik muammolarni hal kilish;
- Maktabgacha yoshdagi bolalarda ta'lim olish ehtiyojini, ukishga kizikish, kitob ukish, maktabga borish hissiyotini shakllantirish;
- Bolalarda mustakil va erkin fikrlashga urgatuvchi ilg'or metodlarni kullash;
- Bolalarga yuksak odab ma'naviy – ahlokiy tushunchalarni mentalitetimiz asosida urgatish.

Pedagogika fani tarbiyani pedagogik xodisa sifatida urganib, bir kator tushunchalarni uz ichiga oladi. Pedagogikada tarbiya, ta'lim, ma'lumot asosiy tushunchalar hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya masalalarini va muammolarini o'rganayotgan ba'zi o'qituvchilar, tadqiqotchilar va amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya-faqat axborot texnologiyasi bilan bo'liq hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan o'qitishning texnik vositalari, kompyuter, proektor yoki boshqa texnik vositalar hisoblanadi. Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi-pedagoglarning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erisha olishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bo'lik. Maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishuvda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi pedagoglar o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, ta'lim-tarbiya jarayonida pedagoglar mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab izlanib tahlil etib, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, pedagog esa ularning bunday fazilatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, ana shu—o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor. O'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya-bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit bir jarayon bo'lib, u pedagoglarning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Pedagogik maqsadning amalga oshira bilishi va kafolatlangan natijaga erisha bilish pedagog va tinglovchilarning hamkorlikdagi faoliyati, ular qo'ygan maqsad, tanlangan mazmun, uslub, shakl, vositaga, ya'ni texnologiyaga bog'liq.. Pedagogning maqsaddan natijaga erishuvida qanday texnologiyalarni tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishuviga qaratilgan.. Bunda pedagoglarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab, ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. SHu bilan birga o'quv jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur. Bu jarayonda mavzuning o'ziga xos tomonini, joy va sharoitni, eng asosiysi, pedagoglarning imkoniyati, ehtiyojini va

hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishning hisobga olishi lozim. SHundagina, kafolatlangan natijaga erishiladi.

SH.A.Amonshivilining insonparvar-shaxsiy texnologiyasi.

“O‘zingni bolalarga bag‘ishla”

Akademik SHalva Aleksandrovich Amonashivili o‘zining tajribali maktabida hamkorlik pedagogikasini ishlab chiqdi va hayotga tadbiq qildi.

Pedagogik faoliyatining natijasi “Maktab hayoti” texnologiyasidir.

SH.Amonashivilining texnologiyasining maqsadi quyidagilardan iborat:

- boladagi shaxsiy sifatlarni echish yo‘li bilan unda komil insonga xos bo‘lgan xususiyatlarni paydo qilishga imkoniyat yaratish.
- bolaning ko‘ngli va yuragiga yaxshilikni, ezgulikni joylash.
- Bilim va o‘quvlarni chuqur va mustahkam o‘zlashtirish uchun sharoitlarni ta‘minlash.
- Ideal tarbiya – o‘z-o‘zini tarbiyalash.

Asosiy konseptual g‘oyalar quyidagilar:

1. Hamkorlik pedagogikasining barcha g‘oyalari.
2. Bola hodisa sifatida o‘zi xizmat qilish lozim bo‘lgan hayotiy missiyani aks ettiradi.
3. Bola tabiat va kosmosning oliy ne‘mait va o‘zida ularning qudrati va cheksizligini namoyon etadi.
4. Bolaning to‘liq psixikasida 3 ta narsaga ishtiyoq mavjud:
 - rivojlanishga ishtiyoq.
 - ulg‘ayishga ishtiyoq .
 - erkinlikka ishtiyoq.

Amonashivili texnologiyasida bola faoliyatini baholash muhim rol o‘ynaydi. Unda baho qo‘yish juda chegaralangan. Baho – oqsoq pedagogikaning qo‘ltiq tayog‘i. Miqdoriy baho o‘rniga sifatni baholash, ya‘ni harakteristka berish o‘zini tahlil qilishga, o‘ziga baho qo‘yishga o‘rgatish.

Dars bolalar hayotida etakchi o‘rin tutadi. “Dars-ijod, dars-o‘yin”.

1.2 MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARDA VAQT TASAVVURLARINI RIVOJLANTIRISHNI TASHKIL QILISH MUAMMOLARI.

Bolalarga matematikadan ta'lim berish va maktabgacha ta'limdagi o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirishning maqsadlaridan biri —bu bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirishdir.

Bolalar matematik tushunchalarini rivojlantirish uchun pedagogika, falsafa, mantiq, psixologiya va boshqa bir qator fundamental fanlarda o'rganiladigan xususiyatlar va qonuniyatlarni bilish kerak.

Bolalardagi matematik bilim hayotdan ajralmagan holda dunyoni chuqurroq, to'laroq o'rganishga imkon yaratadi. Bunda bolalarda matematik tushunchalardan oldin mavjud bo'lgan g'oya katta ahamiyatga egadir. Har bir yangilikdan oldin g'oya paydo bo'ladi, keyin shu yangilik ha , kelib chiqqan natijalarni isbotlash uchun umumiy uslubni anglashga va shu natijani umumiy ifodalashga harakat qiladi.

Matematik masalalarni echish jarayoni o'zining mohiyati bo'yicha mustaqil fikrlashni talab qiladi. Matematik tushunchalarni rivojlantirish darajasi turli insonlarda turlicha bo'ladi. Uning shakllanishi doimiy mashq qilishni talab qiladi. Bu mashqlar oila va maktabgacha ta'limda boshlanadi. Har bir mustaqil echilganmasala, tuzilgan masala va masalani echish jarayonida uchragan qiyinchiliklarni mustaqil engishida matonat shakllanadi, ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi.

Ruhshunoslarning fikriga qaraganda, matematik tushunchalarni shakllantirish muammosi murakkab va serqirralidir. O'zining mohiyati bo'yicha har bir fikr ijodiy, past yoki yuqori darajaning mahsulidir. Har bir fikr — izlanish va yangilikni yaratish hamda uni ommalashtirishga qaratilgan mustaqil harakatdan iborat.

Adabiyotlar tahlillari shuni ko'rsatadiki, matematik tushunchalarni rivojlantirish mahsulining yuqori darajadagi yangiligi, unga erishish jarayonining

o'ziga xosligi va aqliy rivojlanishga sezilarli ta'sir ko'rsatish bilan ifodalanadi. Ayrim mualliflar bolaning turli fikrlashlari ularning oldida turgan yangi muammolarni mustaqil echishga, chuqur bilimlarni tez egallashga, qulay imkoniyatga engil o'tishga undaydi, deb hisoblaydilar.

S.L.Rubinshteynning birinchilardan bo'lib umumiy aqliy rivojlanish borasida qilgan izlanishlari maqsadga muvofiqdir.

U ruhshunoslikdagi faoliyat toifasini ruhiy izlanishning obekti hamda maqsadi qilib kiritdi va asosladi. Faoliyat nazariyasi asosida S.L. Rubinshteyn faoliyat tushunchasini subektdan obektga o'tish deb kiritadi. S.L.Rubinshteyn faoliyatning ikkinchi bosqichini obektdan subektga qarab borgan aloqadan iborat deb hisoblaydi. S.L.Rubinshteynning diqqat markazida, inson faoliyati jarayonida faqatgina o'ziga xos bo'lgan shaxs sifatida o'zining xususiyatlarinamoyon etib qolmay, balki undagi ruhiyatning shakllanishi obekt bo'lib aniqlanadi, degan mazmun turadi. „Faoliyat“, „harakat“ tushunchalarining fundamental psixologik tushunchalari A. N. Leontev ishlarida yoritilgan.

Faoliyat — subektning bir-biriga bog'langan realligining o'zaro ta'sir ko'rsatishi deb bilgan A.N.Leontev, reallikning bola ongida aks ettirilishi — „ta'sir“ning natijasi bo'lmay, o'zaro ta'sir, ya'ni bir-biriga duch kelgan jarayonlarning natijasidir, deb hisoblaydi.

A. N. Leontev va S.L. Rubinshteynning o'qitish amaliyotidagi xulosalariga qaraganda, matematik tushunchalarni shakllantirishda faoliyat shakllarining ishlanmasi va ishlatilishi hamda ta'limdagi faoliyat tamoyillarining bir-biriga ketma-ket o'tkazilishi eng foydali va natijali yo'nalishdir.

Matematik tushunchalarni rivojlantirishda bo'lgan barcha izlanishlar ikki asosiy yo'nalishda olib borilmoqda. Birinchi yo'nalishda matematik tushunchalarning o'ziga xos xususiyatlari ta'riflanadi. SHu nuqtai nazardan muammolarni o'rganishga ko'p olimlarning ishlari bag'ishlangan. Ularda bir necha g'oyalar aniq aks ettirilgan:

a) g'oyalardan bin — bolalarning amaliy faoliyati bajarilishidagi ayrim belgilar ularning har xil birikmalarini ajratib ko'rsatmoqda, ya'ni amaliy masalalarni

mustaqil ravishda tuzmoq, bajarish, ijodiy xarakterdagi masalalarni echish, aniq va yashirin jarayonlarning funksional bog‘lanishini tushungan holda bajarish va hokazo;

b) izlanishlarning ikkinchi guruhi matematik tushunchalarni shakllantirishning xususiyatlarini bilim boyligi va uni o‘zlashtirish darajasi orqali izohlashni o‘z ichiga oladi;

d) uchinchi — matematik tushunchalarni shakllantirishning asosini tarbiyachilarning turli xil (masalan, tushunchalar yig‘indisini: qo‘shmoq, mulohaza qilmoq, mantiqiy bog‘lanishni aniqlamoq, bilmoq) masalalarni echishda namoyon bo‘lgan umumiy qobiliyatlari bilan bog‘laydi.

Ikkinchi yo‘nalishdagi izlanishlar matematik tushunchalarni shakllantirishning mexanizmi, o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish va tushuntirishga bag‘ishlangan. Bunda matematik tushunchalarni shakllantirishni shaxs xususiyatlari (kasbga bo‘lgan qiziqish, shaxs uchun ijodiy fikrlashning ahamiyati, shaxsning yoshiga xos bo‘lgan xususiyatlar) bilan bog‘lashga harakat qilingan.

Bolada matematik tushunchalar shakllangan hisoblanadi. Agar masalani echishdagi yangilikni, masalani qiziqarli echish uslubini, doim qo‘llab kelgan standart uslublaridan voz kechib, masalaning yangi echimlarini, muammoning asosiy bog‘lanish mohiyatini anglash va uni echish uchun turli usullarni topish, amaliy masalalarni echish muammolaridan chiqish, oldindan aytib berish qobiliyatlariga ega bo‘lsa, matematik tushunchalar rivojlangan hisoblanadi.

L. S. Vigotskiy fikrlashning rivojlantirish muammosini o‘rganib, dastlab matematik tushunchalarni shakllantirishni ilgari suradi. Bunda u bolalarda matematik tushunchalarni shakllantirish uchun eng qulay sharoitlarni topish lozimligini ta’kidlaydi.

L.S. Vigotskiyning fikri bo‘yicha, bolaning tasavvuri rivojlanishi bilimlarni o‘zlashtirish jarayonisiz o‘tmaydi, faqatgina o‘quv axborotlarining to‘plami (bilim, bilish) fikrlashni harakatlantiradi, bolalarning fikrini rivojlantiradi. O‘z navbatida matematik tasavvurning hosil bo‘lishi bilim va bilishni o‘zlashtirish

yuqori

darajada bo'lishiga dastlabki shart hisoblanadi.

L. S. Vigotskiydan keyin psixolog va didaktlarning ko'pchiligi o'rgatish — rivojlanish manbai, tarbiyachilarning bilimi va bilishi— ularning rivojlanishi uchun muhim shartlardan biridir, deb hisoblaydilar. Bunda o'qitish jarayonida tasavvurni hosil qildirish jarayonini ko'zda tutish muhimdir, ya'ni tarbiyachilarning egallagan matematik tushunchalarni rivojlanish darajasini e'tiborga olish va ularni keyingi engilroq maydonga siljitish kerak. Ushbu maydonni aniqlash uchun L. S. Vigotskiy ikki ko'rsatkichdan foydalanishni tavsiya etadi:

- 1) bolaning yangi bilimlarni kattalar yordamida egallashi;
- 2) boladagi o'zlashtirilgan bilimlarni masalalarni mustaqil echishda qo'llash, tatbiq etish qobiliyati. L. S. Vgotskiyning takliflarini amaliyotda qo'llaganda:
 - a) bolalarga masalani echilishini ko'rsatib, xuddi shungao'xshash masalani o'zlariga echish uchun beradi;
 - b) tarbiyachi boshlab qo'ygan masalani bolaning echib tugatishini tavsiya etadi;
 - d) murakkabroq masalalarni echishni bolaga tavsiya etadi;
 - e) masalaning echilish prinsipini tushuntiradi, yordamchi savollar beradi, muammolar qo'yadi, masalani qismlarga bo'ladi va hokazo.

Bundan tashqari, masalani echish jarayonida tasavvurni hosil qildirish jarayonini aniqlash uchun tavsiya etilayotgan usullardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi, deb hisoblaymiz.

Z. I. Kalmakovanning ishlarida ta'kidlanadiki, „yaqindan tushunchalarni rivojlantirish maydonini o'rganishda, Vigotskiy aytganidek, masalaning faqatgina kattalar yordamida echilishi mumkin bo'lmay, balki bolaning maqsadiga etish uchun talab qilinayotgan yordamning me'yori ham ahamiyatga egadir.

Z.I.Kalmakovanning fikricha, bolada matematik tushunchalarni shakllantirishning eng ishonchli ko'rsatkichi — uning ta'limiyligi, ya'ni bolaning bilimlarni o'zlashtirishining umumiy qoidalarida, deb hisoblaydi. Ta'limiylikning asosi, uning asosiy tashkil etuvchisi— ta'limiylikning boshqa parametrlarini

yuqori darajada aniqlab beradigan fikriy faoliyatning umumiyashtirilishidir. Masalaning bola uchun foydali echilishi V. G. Razumovskiy, Kalmakova va boshqalarning fikricha, bola shu masalani chin ko'ngildan qabul qilishi lozim. Buning uchun ushbu bilimlarga qiziqishni rivojlantirish talab qilinadi. Ammo bu juda subektiv va ma'lum miqdorda sun'iy holat, chunki bunday faoliyatni har doim ham tabiiy deb tasavvur qilish qiyin. Bolada yangilangan faoliyat paydo bo'ladi va shakllanadi. Bunday faoliyat asosida bola har xil qobiliyatlarni o'zlashtiradi va yangilaydi. V. V. Davidov ushbu faoliyat o'quv masalalarini, ya'ni o'rganilayotgan obekt va holatlarning muhim tomonlarini aniqlashga, rivojlanish qonuniyati va ularning rivojlanishini aniqlaydigan mohiyatini ochib beradigan jihatlarini o'rganish jarayonida bo'ladi, deb hisoblaydi. SHaxs harakatlanmasdan maqsadni aniqlay olmaydi. Boshqacha aytganda, maqsadlar tasvirlanmaydi, asossiz subekt bo'la olmaydi, ular obektiv holatlarda berilgan. YA'ni, maqsadni topish uchun harakatlanish zarur. Faoliyatimiz, harakatimiz qanchalik har xil bo'lsa, maqsadni aniqlash, oldindan ko'ra olish imkoniyati shuncha ko'proq bo'ladi.

Matematik tushunchalarni shakllantirishda I.YA.Lerner va M.N. Skatkin ishlab chiqqan uslublar turkumlariga tayaniladi.

Ushbu turkumlashda uslublar quyidagilarga bo'linadi:

- 1) tasvirli tushuntirish yoki axborot uslubi;
- 2) reproduktiv (yodda saqlash, eslash) uslubi;
- 3) muammoli ifodalash uslubi;
- 4) qisman izlanish uslubi;
- 5) izlanish uslubi.

Tasvirli tushuntirish uslubiga tayyor bilimlar va faoliyat uslublarini eslash (yodda saqlash) kiradi.

Muammoli ifodalash uslubi esa matematik va aniq bilimlarni yodda saqlashni o'z ichiga oladi.

qisman izlanish uslubida fikrlash va yodda saqlash elementlari qo'shib keladi.

Izlanish uslubi esa ijodiy faoliyatni taxmin etadi.

Ushbu uslublar bilimlarni o'zlashtirish, bilim va ko'nikmalarni shakllantirishni ta'minlaydi, tarbiyachilarda ijodiy faoliyat tajribasini egallashga imkon yaratadi, ularda emotsional (his, tuyg'u) madaniyatini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Boshlang'ich matematik tushunchalarni rivojlantirishda ta'lim muammolari

Bolada matematik tushunchalarni shakllantirishda muammoli ta'lim katta ahamiyatga egadir. Muammoli ta'lim — bu didaktik tizim bo'lib, pedagog (tarbiyachi)larni muammoli xarakterdagi savollarni echishga jalb qilishni nazarda tutadi. Psixologlar fikrlash muammoli vaziyatdagi savoldan boshlanadi, deb hisoblaydilar. SHuning uchun muammoli vaziyat muammoli ta'limning asosini tashkil qiladi, muammoni echish uchun sharoit yaratadi. Vaziyat — bu ilmiy bahs-munozara orqali tushunchalarni tartibga solish uchun zaruriyatga chaqiruvchi jarayondir.

Muammoli jarayon — o'zining echilishi uchun izlanishni talab qiladigan anglangan qiyinchilikdir. Berilgan savol qiyinchilik yaratsa va javob berishda pedagog (tarbiyachi)dan yangi bilim va fikriy faollik talab qilinsa, o'shanda muammoli vaziyat yaratiladi. Muammoli vaziyatda pedagog (tarbiyachi)lar e'tibori savollarning echilishiga to'liq yo'naltiriladi, pedagog (tarbiyachi)larning fikrlashi moyil qilinadi (to'g'rilanadi). Muammoni echishda ushbu moyillik aniq maqsadga aylanadi. Bola tomonidan asosiy bilim, tushuncha, og'zaki, masala echish uslublari chuqur va mustahkam o'zlashtirilgandagina, muammoli ta'lim foydali bo'lishi mumkin.

Vaqqing asosiy kabul qilinishi bu sezish qobiliyatidir.

Har xil kompleks analizator vaqtni sezij qobiliyatining cho'zilishiga ta'sir qiladi, lekin asosiy xususiyati deb I.M. Sechenov eshitish va tananing sezgi qobiliyatlariga e'tibor bergan «Faqat tovush va tananing sezij qobiliyati insonga vaqt hakida tushuncha beradi, shunda ham to'la o'z mazmuni bilan emas balki faqat bir tomonlama tovushning tortilishi va tananing sezijini tortilishi». SHuning uchun I.M. Sechenov eshitish va sezij xususiyatidan bu vaqt bo'shlig'ining analizatorlari degan edi.

I.P. Pavlov ko'rsatgan ediki, vaqtning hisoblanishi nerv tizimining har bir elementiga, uning har bir xujayrasiga xos u buni eksperimental asosda isbotladi. Har qanday analizator «vaqtni hisoblashi» mumkin. I.P. Pavlov aytgan ediki, vaqtning fiziologik qabul qilinishi bu kishining tormozlanishi va ta'sirlanishidir, bu esa vaqtni hisoblashga yo'l beradi.

Bu fikrlar qator izlanishlar orqali ko'rsatilgan:

Ikinchi sigial tizimida ta'sirlanish vaqtining etarli hisobga olinmasligidan kelib chiqadi, tormozlanish jarayonida unga ko'proq baholash xususiyatidandir.

SHunday qilib, aniq vaqt intervallarini vaqtinchalik baholash ta'sirlanish va tormozlanish dinamik jarayonida aniqlanadi.

Vaqt intervalida differensirovka bu vaqtga nisbatan shartli reflekslarning xosligidir.

2. Kichik guruhda bolalarning ertalab, kundo'zi, kechqurun va kechasi vaqt oraliklari xaqidagi tasavvuri aniqlanadi. Sutka qismlarini kichkintoylar o'z faoliyatlari mazmunining o'zgarishiga hamda shu vaqt oraligida o'z atroflarida bo'lgan katta yoshli kishilar faoliyatiga qarab farq qiladilar.

Aniq kundalik tartib, bolalarning uyqudan turish, ertalabki badantarbiya, nonushta, mashg'ulot vaqtlari qat'iy belgilab qo'yilganligi va sutkaning bo'laklari haqida tasavvur xosil qilish uchun real sharoitlar yaratadi.

Pedagog vaqt bo'lagining nomini aytadi va bolalarning shu vaqtda mos bo'lgan faoliyat turlarini sanab chikadi. «Hozir ertalab, biz badantarbiya qildik yuvindik, endi esa nonushta qilamiz». YOki «Biz allaqachon nonushta qilib bo'ldik, shug'ullanib ham bo'ldik. Hozir kundo'z kun. Tez orada tushki ovqatni eymiz».

Masalan, boladan quyidagilar so'raladi: «Hozir ertalab. Sen ertalab nima qilasanq Sen o'ringdan qachon turasanq» va shu kabilar. Kun davomida bolalar bilan birgalikda kunning turli bo'laklarida bolalar va kattalarning faoliyatini tasvirlaydigan rasmlar ko'rib chiqiladi.

Rasmlar shunday bo'lishi kerakki, ularning vaqtni mazkur bo'lagi uchun xarakterli bo'lagi belgilar aniq ko'rinib tursin. Tarbiyachi rasmda tasvirlangan

bolalar nima ish qilayotganliklarini va bu harakat qaysi vaqtda bajarilayotganligini aytadi. U bolalarga savollar beradi: «Sen erta bilan nima qildingq Kundo‘zichiq». Yoki «sen qachon o‘ynaysanq Qay vaqtda sayr qilasanq Sen qachon uxlaysanq». Keyin bolalar, masalan, erta bilan, kundo‘zi yoki kechqurun kattalar yoki bolalar nima qilayotganliklari tasvirlangan rasmni tanlab oladilar.

Bolalar asta sekin erta bilan, kundo‘zi, kechqurun, kechasi so‘zlarining aniq mazmunini tushinib oladilar, ularga emotsional rang beradilar. Bolalar o‘z nutqlarida ulardan foydalana boshlaydilar.

2. Kichik guruh singari bu guruhda ham vaqtni bilish bolalarni asosan, kundalik xayotida o‘stirib boriladi muhimi bu o‘rgatishining puxta xissiyot asosida amalga oshirilishidir.

Pedagog sutka qismlarining nomini bolalar va ularga yaqin katta yoshli kishilarning ertalab, kundo‘zi kechqurun, kechasi nima nima qilishlari bilan bog‘liq, bolalarning sutka qismlari haqidagi tasavvurlarini aniqladi.

Bolalarning sutka haqidagi tasavvo‘rini aniqlash haqidagi tasavvo‘rini aniqlash maqsadida ular bilan suhbat olib boriladi. Suhbat taxminan mana bunday o‘tkazilishi mumkin: avval tarbiyachi bolalardan ular bolalar MTMsiga kelishdan oldin nima ish qilganliklarini, ertalab bolalar MTMsida nima qilganliklarini, bolalar MTMsida kundo‘zi nima qilishlarini gapirib berishlarini so‘raydi. U bolalarning sutkaning har bir qismida nima qilayotganliklarini aniqlaydi va umumlashtiradi. U suhbat oxirida ertalab, kundo‘z va tun bular sutkaning qismlari ekanligini aytadi.

«Bugun», «kecha» kabi vaqt tushunchalarini nisbiy xarakterga ega. Bolalarning ularni o‘zlashtirishlari qiyin. SHuning uchun imkoni boricha bugun, ertaga, kecha so‘zlaridan ko‘proq foydalanish va bolalarni bu so‘zlarni ishlatishga undab turish zarur. Tarbiyachi muntazam ravishda ularga «Biz qachon rasm soldikq Biz bugun nima qurdikq Ertaga qaerga boramyzq Savollari bilan murojaat qilib turishi lozim. Tez sekin so‘zlarining ma‘nosi aniq misollar bilan ochib boriladi. Tarbiyachi bolalar diqqatini o‘yin davomida ular bajarayotgan harakatlarning tezlik darajasiga jalb etadi. Kiyinish vaqtida u tez kiyinayottanlarni

maktaydi. Imillab kiyingan bolalarni aybsitadi, sayr vaqtida yayov kishi bilan velosipedchining, avtomobil bilan poezdiint, qurt bilan qo'ng'izning harakat tezligini taqqoslaydi.

Kichik grutshadan boshlab bolalarni vaqtni orientatsiya qilishga o'rgatib boriladi. Tayyorlov guruhida ertalab, kunduz, kechqurun, kechasi, xafta qabi muddatlari haqidagi bilimlar mustaxkamlanadi, oylar xaqida tushuncha beriladi. Bolalar esa ularning nomlarini eslab qoladilar. Vaqt etalonlarini bilish, vaqt munosabatlarini aniqlay bilish bolalarga sodir bo'lgan voqealarni, ular o'rtasidagi sabab oqibat bog'lanishlarining izchilligini tushinib olishga yordam beradi. Vaqtni orientatsiya qila bilish mustaxkam xis etish asosida, ya'ni vaqt muddatini xilma xil faoliyatning amalga oshirilishi bilan bog'liq holda, xilma xil emotsional ko'rinshp, shuningdek, tabiat xodisalarini, ijtimoiy xayot voqealarini kuzatishni xis ztish asosida amalga oshirilishi kerak. Bolalar vaqt va vaqt o'lchovlari nomini nutqlarida qanchalik ko'p ishlatsalar shunchalik katta axamiyat kasb etadi. Sutka qismlari va ularning davom etish muddati xaqidagi bilimlarni mustaxkamlash davom ettiriladi. Uquv yilining boshida bolalar va kattalar kun davomida qachon va qanday izchilliqda, qanday ishlar bilan shug'ullanishlarini aniqlab olish zarur.

Pedagog «**Bizning kun**» o'yinini o'ynashni taklif etadi. Bolalarni har xil kasbdagi kishilarning mehnati bilan tanishtirib, ularga bu kishilarning sutkaning qaysi davrida ishlarini aytilsh foydalidir. Buning uchun bolalarning bevosita buzagishidan, kitob o'qishdan, shuningdek:

«kim kunduz kuni ishlaydiq»,

«Kechqurungi sayr»,

«Tungi sayr» didaktik o'yinlaridan foydalanish mumkin.

Bu o'yinni o'ynayotib bolalar tegishli mazmundagi rasmlarni tanlaydilar yoki kim sutkaning ma'lum soatida: ertalab, kunduzi, kechqurun, kechasi ishlashini aytilsh beradilar. Bolalarning odatda odamlar **kun** deb ataydigan **sutka** biri ikkinchisi bilan almashinib turishini va har birining o'z nomi borligi, **7 sutka** bir **xaftani** tashkil etishi xaqidagi tasavvurlari ham mustaxkamlanib boriladi. Xar haftadagi kunlarning ketma ketligi bir xildir: dushanba, seshanba va hokazo.

Har kuni ertalab bolalar shu kunning nomini, o'tgan va kelgusi kunning nomini aytadilar.

Bolalarni teztez vaqt munosabatlarini aniqlashga **ertaga, bugun, kecha**, avval, so'ngra gacha, keyin, oldin, bunga qadar, bundan keyin so'zlaridan foydalanishga qiziqtirib borish muhimdir.

O'z tajribasidan, so'zlab berilganlar asosida hikoya tuzishda tarbiyachi voqealarning ketma ket aniq berilishini kuzatib boradi, vaqt munosabatining mazmunini (mohiyatini) tushuntiradi. Bu vaqt munosabatlari mantiqini, shuningdek, bolalar kuzatadigan yoki so'zlab beradigan voqealarni tushinishda muhim ahamiyatga egadir.

So'zli o'yin mashqlaridan:

«Xafta kunlari»,

«Davom ettir»,

«Aksincha»foydalanish yanada katta ahamiyat kasb etadi.

Katta maktab yoshidagi bolalarda vaqtni his qilishni rivojlanishi

Insonning kundalik ish faoliyatida vaqt juda muhim o'rin tutadi. Kishi vaqtiga qarab o'z ish faoliyatini boshlaydi., harakatlarini teulashtiradi yoki sekinlashtiradi, vaqtga moslashishni talab qiladi.

Gap sezij insonni vaqtini tejashga, undan unumli foydalanishga, ataq harakat qilishga undaydi.

Vaqt o'quvchining o'quv xayotida boshqaruvchanlik rolini o'taydi. B.G. Anakeva xabarligida psixologo pedagogik tekshirishlar o'tkazilib, unda bolalarning aqliy taraqqiyoti o'quv yili jarayonida kuzatiladi. Bu tekshirish shuni ko'rsatadiki, bolalarning xech birida vaqtga moslashish, brikmlarining o'zlashtirishning bog'liqligi, qobiliyatlarining rivojlanishi ko'rinmadi.

Maktabga kelgan ko'pchilik bolalarda vaqtni o'zlashtirmaganligi bir qancha qo'shimcha qiyinchiliklarni tug'diradi. Birinchi sinf o'quvchilari darsga kechikmasliklari o'z vaqtida uyiga berilgan topshiriqlarni bajara borishlari kerak, bularning hammasiga ulgurushlari kerak.

Bu talablarning hammasiga to'liq javob berish uchun bolalarni MTM yoshidan tarbiyalangan va tayyorlangan bo'lishi kerak.

Kuzatuvlar shuni ko'rsatayotganki katta maktab yoshidagi bolalar vaqt intervallari, vaqt qismlarini, o'z harakatlari bilan bog'liq holda olib bora oladilar. Ular o'zlari mustaqil vaqt oraliklarini baxolay oladilar. O'z harakatlarini ma'lum harakatda boshlab, ma'lum vaqtda tugata oladilar.

Vaqtning bilishning eng muhim faktorlari:

1. Bola qaysi vaqt haqida gap borayotganini, mustaqil vaqt oraligini bilishi, vaqt haqida, soatdan foydalanishni bilishi kerak.

2. Bolalarning turli harakatlarida ularga ma'lum vaqt bo'laklari haqida, berilgan topshiriqni ma'lum vaqtda bajarishga ulgurish mumkinligini tushuntirish.

Bolalarga soatga qaramasdan o'z sezgilariga qarab vaqtning sezijini rivojlantirish. Kattalar bu malakalarning o'zlashtirishida uning nazoratligi.

Katta va tayyorlov guruh bolalari bilan vaqtning sezijini 1,3,5,10 minut oraliklari bilan tanishtirishdan boshlaymiz.

1 minut bu birinchi vaqt boshlanish xaqidagi birlik hisoblanadi. Xayotda ko'pincha «bir minutga», «bir minutdan so'ng», «bir minut kutib to'ring» kabi iboralar tez-tez ishlatilib turiladi.

Bunda ishni uyushtirish va metodika ishlari quyidagicha bo'ladi:

1. Bolalarni 1,3,5 va 10 minut o'tishi bilan tanishtirish bunda sekundamer, qum soatlardan foydalaniladi.

2. Bu vaqtlarshgag o'tishini turli harakatlarga bogliq holda o'tkazish.

3. Bolalarni ko'rsatilgan, belgilangan vaqtgacha berilgan topshiriqlarni bajarishga o'rgatish.

Ishlar bir necha bosqichda o'tkaziladi:

1 bosqichda belgilangan vaqt ichida berilgan topshiriqni bajarish, bunda qum soatlarda bajariladi. Tarbshgchi doimo bolalarga baxo berib boradi, ularning o'zlashtirishlariga qarab, baxolanadi.

2 bosqichda vaqtning o'tish oraliklarini baholash, tarbiyachi bunda ham baxolab boradi.

3 bosqichda oldindan vaqt oraliklarini uning o‘tishlarini rejalashtirish. Bunda ham qum soatlaridan foydalaniladi.

4 bosqichda esa vaqtni baholash, uning davomiyligini xaet bilan bogliq holda olib borishni o‘rgatish.

Dastur materiali quyidagi mashg‘ulotni o‘z ichiga olib, quyidagi topshiriqlar qo‘yiladi.

1. Bolalarni 1 minut o‘tish davomi bilan tanishtirish.
2. Turli ish faoliyatlari davomida qum soati bilan vaqt o‘tishini nazoratlik qilish.
3. Berilgan topshiriqni o‘z vaqtida bajarish ko‘nikmasini xosil qilish.

1.3 “ Bolajon” dasturida katta guruh bolalarining elementar matematik tasavvurlarini shakllantirish mazmuni

Bu davrda bolaning bo‘yi bu davrda 7-8 sm ga o‘sadi. Uning oyoqlari gavdasiga nisbatan tezroq rivojlanadi, og‘irligi 20-22 kg ni tashkil etadi. Bolalarning umurtqa suyaklari qotmaganligi tufayli tez qiyshayib qolishi mumkin. SHuning uchun ham suyaklarning to‘g‘ri o‘rishini ta‘minlashga alohida e‘tibor berish kerak. Ularning yuragi chaqaloq yuragiga nisbatan 4-5 barobar kattalashgan, biroq muskullari hali etarli darajada mustahkamlanmagan bo‘ladi. Olti yoshga etganda miya po‘stlog‘ining asab katakchalari rivojlanib, og‘irligi va tashqi ko‘rinishidan kattalarnikiga yaqinlashadi. SHuning uchun ham bolaning asablariga juda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish talab etiladi. Uning talaffuzi aniq, nutqi ravon bo‘lishini ta‘minlash kerak. Bolaning bu faoliyatida nuqson bo‘lgan taqdirda uning oldini olish choralarini ko‘rish lozim. Bu yoshdagi bolalarning so‘z boyligining rivojlanishiga alohida e‘tibor berish lozim. Ularning nutqidagi so‘zlar bolaning fikr ifodalash ehtiyojlarini to‘la qondirishi kerak. Bu davrda bolalarning matematik tafakkuri, hisoblash ko‘nikmalarini rivojlanishi lozim. Dastlabki iqtisodiy tushunchalarga ehtiyoj seziladi. Bolaning faraz qilish qobiliyatini jadal rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Jismoniy rivojlanish

Tarbiyachi jismoniy tarbiya faoliyatiga oid turli usullarni bolalar bilan birgalikda ularning hohishlarini hisobga olgan holda tanlashi maqsadga muvofiqdir. Ularni jismoniy tarbiya bo‘yicha mashqlarni ongli ravishda tushunib, aniq va to‘g‘ri bajarishga, harakatli o‘yinlarning qoidalariga rioya etishga o‘rgatish, engil yurish va yugurishga, yurish vaqtida tayanchga kuchliroq tayanib itarilib chopishga, oyoqni balandroq ko‘tarish, qadam oralig‘ini oshirish uchun sekin, o‘rtacha tezlikda, tez yugurishga, yugurish vaqtida, turli to‘siqlardan sakrab o‘tishga o‘rgatish.

YUgurib kelib balandlik va uzunlikka sakrash, sakrashning turiga qarab erga tushish, tushayotgan vaqtda o'zini yig'ishtirib olish ko'nikmalarini shakllantirish, bir qo'l bilan koptokni otish va ilib olishga, biror buyumni qulochkashlab otishni, irg'itib tashlash bilan birga qo'shib olib borishga, tirmashib chiqish va tushishning turli xil usullarini o'rgatish, bolani o'z harakatini bajarishga, tahlil qilishga, o'zga bolalar xatti-harakati bilan qiyoslashga, qomatni to'g'ri tutishga, muskullarni mustahkamlashga yordam beruvchi mashqlarni bajarishga o'rgatish.

Bolalarni velosipedda uchish, suzishga oid turli usullar, har xil sport o'yinlarining qonun qoidalarini qisqacha o'rgatib borish. O'yinda o'zlashtirilgan qoidalarga rioya qilishlariga ham imkoniyat yaratish. Kurash tushishining ayrim usullari, qoidalarini o'rgatish. (Masalan, sambo usullari).

Jismoniy sifatlarni o'stirish, muvozanat saqlash, harakatni boshqarish hamda fazoda mo'ljalga olishni shakllantirishni davom ettirish lozim.

Uyushqoqlik, faollik, mustaqillik, do'stona munosabatlari va o'zaro yordam kabilarni tarbiyalash. Sportning turli xillari bilan tanishtirish mashhur sportchilar bilan qisqacha tanishtirish ularning hayotiga oid qiziqarli voqealarni so'zlab berish shu orqali bolalar qalbida sportga nisbatan muhabbatni uyg'otish.

Ijtimoiy rivojlanishi

Kattalar bilan muloqot. Kattalar bilan mavzudan tashqari holatlarda ham muloqot qilish, kattalarning savollariga hohish bilan javob berish, o'z ona Vatani, uning tabiati, sevimli o'yinchoqlari, xalq milliy an'analariga va odatlariga qiziqish bilan qarash, odob bilan muloqotga kirisha olish (salomlashadi, xayrlashadi, minnatdorchilik bildiradi), muomalada nutq va imo-ishoralarni qo'llay olish.

Kattalar bilan muloqot qilishda tanish qonun- qoidalariga rioya qilish, ot-onalar bilan samimiy ohangda so'zlasha olish, kattalar bilan yuzaga keladigan nizolar hakida kelishib olish, kattalar bilan muloqotda o'z qiziqishi va ehtiyojini nazarda tutish, tanishlarini va oila a'zolarini surat orqali ismlarini aytish.

Kattalar bilan vaziyatdan tashqari muloqotga kirisha olish, kattalar bilan samimiy hamkorlik qilish, kattalarning tushunishlariga muhtoj, o'ynash davrida kattalarning o'zaro munosabatlarini ifodalash.

Kattalar bilan muloqot davrida maktab haqidagi tasavurlarini uyg'otish, kattalar tomonidan o'rnatilgan tartib-qoidaga rioya qilish, kattalar bilan turli muloqot turlaridan foydalanish, kattalar bilan muloqotda imo- ishora orqali murojaat qilish, birinchi marotaba ko'rgan kishilar to'g'risida savollar bilan murojaat qilish ("Kim buq, Qaerdan uq, "Uning ismi nimaq")

Kattalar bilan muloqot qilishda tartib-qoidalarga rioya qilish.

Tengdoshlari bilan muloqot. Tengdoshlari bilan samimiy munosabat o'rnatish, tengdoshlari bilan nizoli vaziyatlarda kelishib olish, tengdoshlariga o'z yordamini ko'rsatish.

Tengdoshlari bilan muloqotda o'z fikrini ayta olish, tengdoshlari bilan yuzaga keladigan nizolarni bartaraf qilish.

Do'stlari tengdoshlarining yutuq va kamchiliklariga diqqat bilan qarash, tengdoshlari bilan muloqot davrida ularning shaxsiy xususiyatlarini ajrata olish.

Tengdoshlari bilan muloqotga kirisha olish, tengdoshlari bilan muloqot davrida o'yinda rollarni taqsimlay olish;

Nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish. Bolalarda o'z nutqi va boshqalar nutqiga nisbatan tanqidiy munosabatni tarbiyalash, ularni to'g'ri gapirishga o'rgatish, gapirganda so'zlarni bir-biriga bog'lab, jumlar tuzish malakasini mustahkamlash. Ot, sifat, fe'llarning murakkab grammatik shakllaridan foydalanishni mashq qildirish. Jonivorlar, narsalar, idish-tovoqlar, kasblar bo'yicha shaxslarning nomlarini topib aytishga o'rgatish.

O'z nutqida uyushiq bo'lakli, sodda yoyiq va qo'shma gaplarning turli xillaridan foydalanish malakasini mustahkamlash, (bog'langan qo'shma gap, ergashgan qo'shma gap. Masalan: Malika keldi va biz birga kitob ko'rdik. Madina qo'rqdi, shuning uchun biz arg'imchoq ucha olmadik. Bunda ko'makchi va bog'lovchi so'zlardan foydalanishga o'rgatish). Bolalarni ravishdan foydalanishga

o'rgatish (tez yurdi, sekin gapirdi), so'z yasash malakalarini mustahkamlash (O'qit-o'qituvchi, baliq-baliqchi, baliqlar va boshqalar).

Bir fikrni turli vositalar bilan bayon qilishga, (SHahzoda xursand bo'ldi, SHahzoda quvondi) bir-birining o'rini, bosadigan gaplarni (Biz gul ekmaymiz, chunki yomg'ir yog'a boshladi. YOmg'ir yog'a boshlagani uchun biz gul ekmaymiz) tuzishga o'rgatish.

Bolalarga to'g'ri grammatik shakllarni mashq qildirishda ko'proq og'zaki mashq va o'yinlardan foydalanishga o'rgatish. Masalan: "Ayt-chi qandayq" og'zaki o'yini: "Qor qandayq" Oppoq, muzday, sovuq, mayda; "Gul qandayq" CHiroyli, qizil, xushbo'y...

Bolalarni sodda (Qizil olma) va qo'shma gaplar (Biz polizga ekin ekdik) tuzishga (avval namuna asosida, keyin mustaqil), bunda barcha so'z turkumlaridan foydalanishga o'rgatish.

Bolalarni gapirganda sonni otga (stol ustida beshta nok va ettita olma bor), sifatni otga (chiroyli ko'ylak, qizil olma), sifatni fe'lga (qo'shiqni yoqimli kuylaydi, rasmni chiroyli chizadi) to'g'ri bog'lash, hayvonlarning bolalarini bildiruvchi otlarni ko'plik sonida (toychoqlar, qo'zichoqlar, buzoqchalar) to'g'ri ishlatish malakalarini takomillashtirish. Bolalarni turli usullar bilan yangi so'zlar yasash (gul-guldon, gulzor, gulchi, Gulnora, qand-qanddon, suv-suvli, suvchi va boshqalar)ga, nutqda sifatdoshlardan (o'qiyoggan bola, o'ynayotgan kapalak) foydalanishga o'rgatish.

Bog'lanishli nutqni shakllantirish. Bolalar bilan og'zaki nutqning ikki shakli-so'zlashuv va hikoya qilib berish nutqini o'stirishni davom ettirish. Ularni suhbat paytida faol ishtirok etishga undash, mavzu bo'yicha berilgan savollarga tushunib, qisqa va to'liq javob berish o'rtoqlarining berayotgan javoblariga e'tibor berish malakasini takomillashtirish.

Bolalarni nutqning ifodali vositalari: imo-ishora, yuz harakatlari, ovoz sifatlari (baland, o'rtacha, past, juda past va hokazo)dan foydalanishga o'rgatish, nutqiy muloqot madaniyatini tarbiyalash. Badiiy asarni qayta hikoya qilish, mustaqil hikoyalar tuzishda voqealarni ketma-ket bog'langan holda, grammatik

jihtadan to'g'ri jumlar tuzib bayon qilishga o'rgatish. Bolalarning badiiy asarlarni qayta hikoya qilish malakasini o'stirish. Adabiy asarlari mazmunli, mantiqiy izchillikda, aniq va tasviriy ifodalardan foydalangan holda hikoya qilishga o'rgatish.

Tarbiyachi qayta hikoya qilishni o'rgatayotganda bolalar diqqatini, ayniqsa, ertakning boshlanishi, takrorlanishi, xulosa qismiga, hikoyalardagi ikki kahramonning o'zaro nutqi kabilarga qaratishi lozim.

Bolalar asar voqealarini so'zlayotganda ovoz ohangining xilma-xil turini (so'roq, his-hayajon, xayratlanish, iltimos) kabilarni qo'llay bilishlariga erishish.

Bolalarga o'yinchoklar va buyumlar haqida hikoya tuzishni o'rgatayotganda o'yinchoqlarni ta'riflab berishga, o'yinchoqlarning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatuvchi belgilarini (rangi, shakli, qanday o'ynalishi va boshqalar) aniq so'zlar orqali ifodalashga o'rgatish.

Ijodiy hikoya qilish. Bolalarni tarbiyachi tomonidan aytilgan hikoya yoki ertakni nihoyasiga etkazish, jumlarini qisqa, lo'nda tuzish, tasviriy vositalardan foydalanishga o'rgatish.

Bolalarni shaxsiy tajribalari asosida, tarbiyachi taklif etgan hayotiy mavzular bo'yicha mantiqiy rivojlanib boruvchi hikoya yoki ertak tuzish qobiliyatlarini rivojlantirish. "Lolaning maktabgacha ta'lim muassasasidagi birinchi kuni", "Metroda", "Sirkda", "Bizning oila", "Bizning jonli burchagimiz", "Men qushlarni ovqatlantirdim", "Men archa bayramini qanday o'tkazdim", "Dam olish kuni", "Bizning maktabgacha ta'lim muassasasi", "Gulzorimizdagi gullarni qanday etishtirdik", "Tanlangan o'yinchoqlar bo'yicha hikoya tuzish", "Bog'chamda yoqtirgan o'yinlarim", "Eng yaqin o'rtog'im", "Dadamlarga qarashdim", "Zo'r multfilm ko'rdim", "Ko'g'irchoq teatriga bordik" va boshqalar.

Bolalarning qahramonlarning ruhiy kechinmalarini ta'sirchan bera bilishga o'rgatish. "Qish", "Birinchi qor", "YAngi yil bayrami", "Qorbobo", "Eng yaxshi fasl", "Men onamga yordamchi", "Men dadamga yordamchi", "Onamlarning bayrami", "Men Navro'z bayramini qanday o'tkazdimq" kabilar.

Bolalarga mazmunli rasmlarda aks ettirilgan voqealarni izchil bayon qilishni, persanajlarning hatti-harakatlariga nisbatan o'z munosabatlarini bildirish, hikoyani mantiqli tugalashni, topishmoqlar o'ylab topishni o'rgatish.

Suratlar bo'yicha so'zlab, hikoya qilishda, bolalarga suratda tasvirlangan voqealarga munosabat bildirib, mustaqil hikoya tuzishga o'rgatiladi. Jumlani grammatik jihatdan to'g'ri tuzishlariga, tovushlarni aniq talaffuz etishlariga e'tibor beriladi. SHu bilan birga rasmda aks ettirilgan mazmunli voqeaga qarab, ilgari nima bo'lganini va keyin nima bo'lishi mumkinligi haqida fikr yuritishga undash mumkin. Tabiat manzaralari aks ettirilgan suratga qarab tasviriy hikoya tuzishga o'rgatish. SHu bilan birga tarbiyachi bolalarga o'zlari tuzgan hikoyalaridagi persanajlarga qisqacha ta'rif berishlariga, ularning xatti-harakatlariga o'z munosabatlarini bildirib o'tishlariga ham diqqatini qaratish va o'rgatib borish lozim. Mustaqil tanlangan mavzu bo'yicha hikoya aytilayotganda voqealarning izchilligi, tugal mantiqqa ega bo'lishi, tasviriy ifoda vositalaridan o'rinli foydalanishlariga ahamiyat berish. Bolalarni taqqoslash usulidan foydalanib topishmoqlar o'ylab topishga o'rgatish.

Elementar matematik bilim va ko'nikmalar 5-6

Son va sanoq. Bolalarga to'g'ri usullardan foydalanib 6, 7, 8, 9, 10 sonlarining hosil bo'lishi bilan tanishtirish. Bu sonlar doirasida sanashni o'rgatish: bir qator qo'yilgan predmetlarni sanab, sonni tartib bilan aytish, sonni ot bilan moslashtirib, oxirgi sonni sanalgan predmetlarga taalluqli qilib aytish. Masalan, "Bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti - hammasi bo'lib oltita kitob".

Bolalarga predmetlarning ikki guruhini qiyoslashni mashq qildirish ("Bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, etti – hammasi bo'lib ettita sabzi ", "Bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti – hammasi bo'lib oltita quyon. Ettita ko'p, oltita kam. Agar quyonlarga sabzilarni berib chiqsak, bitta sabzi ortib qoladi").

10 gacha bo'lgan sanoq va tartib sonlarni o'rgatish, "Nechtaq", "Nechanchiq", "Sanoq bo'yicha nechanchi", "Qanchaq", "Qaysiq", "Nechanchisiq" "Jami qanchaq" savollariga javob berib, sanoq va tartib sonlardan to'g'ri foydalanishni o'rgatish.

Soni 10 gacha bo'lgan ikki guruhdagi buyumlar sonini taqqoslash tenglashtirish, bittaga kamaytirish va bittaga orttirish.

Predmetlarning kam guruhiga etishmagan predmetni qo'shishni yoki ko'p guruhdan bitta ortiqcha predmetni olishni va guruhlar o'rtasida bir xil miqdordagi har xil predmetlardan iborat tenglik hosil qilishni o'rgatish. ("Kartochkaning yuqori qatorida oltita olma, pastki qatorida ettita nok, noklar olmalardan bitta kam. Agar yana bitta nok qo'ysak olmalar va noklar soni teng bo'ladi").

Son predmetning joylanishiga bog'liq emasligi haqida tasavvurni shakllantirish.

0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9 raqamlari bilan tanishtirish.

10 gacha bo'lgan sonlarni birliklardan iborat tarkibi bilan tanishtirish, masalan: (4-bu 1, 1, 1 va yana 1, 9-bu 1, 1, 1, 1, 1, 1, 1, 1 va yana 1).

10 gacha bo'lgan sonlarni o'zidan kichik bo'lgan 2 ta sondan hosil qilishni o'rgatish (masalan: 4-bu 3 va 1; 1 va 3; 2 va 2 kabi)

10 dan 1 gacha teskari sanashni o'rgatish.

10 soni ichida sonlarning qo'shnilarini - oldingi va keyingisini topishni mashq qilish. Masalan, "5 dan oldin 4, 5 dan keyin 6 soni keladi. 4 va 6 sonlari 5 sonining qo'shnilari".

YOnma - yon turgan 10 gacha bo'lgan sonlarni qiyoslashga o'rgatish.

Tengsizlikdan tenglikni (yoki tenglikdan tengsizlikni), kam songa bitta predmetni qo'shib yoki ko'p sondan bitta predmetni olib, teng yig'indilardan biriga bir predmetni qo'shib yoki yig'indilardan biridan bir predmetni olib tenglikka va tengsizlikka qanday erishishga o'rgatish (masalan: "Sakkiz – sakkizga teng, sakkizta predmetga bitta predmet qo'shilsa, to'qqizta bo'ladi, bir predmetga ko'p bo'ladi.", "O'n o'nga teng: agar o'nta predmetdan bitta predmet olinsa, to'qqiz bo'ladi, bir predmetga kam bo'ladi").

Berilgan son bo'yicha guruhlar tuzishga o'rgatish, masalan: (8 tadan, 9 tadan, 10 tadan va hakoza).

Arifmetik masala echishning (sanashga asoslangan) tuzilishi bilan tanishtirish. Qo‘shish va ayirishga doir masalalarni echishda bittalab qo‘shib va bittalab ayirib hisoblash usuli bilan tanishtirish.

10 ichida barmoq, sanoq cho‘pi va buyumlar yordamida qo‘shish va ayirishni o‘rgatish.

Bolalarga uyining nomerini aytishni o‘rgatish.

Kattalik. Uzunligi, kengligi har xil bo‘lgan bir necha predmetni (10 tagacha) bir-birining ustiga uzunligi, kengligiga, qalin-yupqaligiga ko‘ra ortib va kamayib boradigan tartibda qo‘yib qiyoslashni o‘rgatish (eng keng, torroq, yana torroq, eng tor lenta). Predmetlar qanday tartibda terib chiqilganini tushuntirib berishga o‘rgatish.

Turli uzunlikka, kenglikka, balandlikka ega predmetlarni ko‘payib borish yoki kamayib borish tartibida (10 tagacha bo‘lgan predmetlardan foydalanib) terib chiqishga o‘rgatish, masalan: baland, past, yanada past, yanada pastroq, eng past.

Butunni 2 ta, 4 ta teng qismga bo‘lishni, butun bilan qismni taqqoslashni o‘rgatish.

SHartli o‘lchov bilan tanishtirish. Taqqoslanayotgan predmetlardan biriga teng bo‘lgan o‘lcham yordamida ikkita predmetni uzunligi (kengligi, balandligi) ga qarab taqqoslashga o‘rgatish.

Narsalarni ko‘z bilan chamalab, miqdori, kattaligi (uzun (qisqa), keng (tor), enli (ensiz), baland (past), qalin (yupqa)) kabi namuna va unga teng bo‘lgan bolalar uchun tanish narsalar yoki harakatlar natijasida qiyoslanuvchi narsalarning o‘lchamini aniqlashga o‘rgatish.

Geometrik shakllar. SHakllar har xil o‘lchamda bo‘lishi mumkinligi haqida tasavvur hosil qilish (katta doira - kichik doira, katta kvadrat – kichik kvadrat).

SHakllar va uning ayrim belgilari haqida tasavvur hosil qilish: Masalan, to‘rtburchakning 4 ta burchagi va 4 ta tomoni (to‘rtburchakning turli ko‘rinishlari misolida) bor.

Bolalarning shar, kub, silindrlar haqidagi tasavvurlarini mustahkamlash va ular yordamida turli mavzularda loyihalar yaratish.

Doira va oval shaklini farqlashga doir turli mashqlarni bajartirish.

Qurshab turgan narsalar orasidan tanish bo'lgan geometrik shakllarni topa olishga o'rgatish: Masalan, lagan, non doiraga o'xshaydi; stolning usti, devor, eshik va derazalar to'rtburchakka, ro'molcha kvadratga, qizchalar boshidagi ro'mol uchburchakka, stakan silindrga o'xshaydi va hakoza.

Uchburchak va to'rtburchaklardan turlicha katta o'lchamdagi narsalar va shakllar tuzish.

Turli geometrik shakllar to'plamidan har xil o'yinlar o'ynash, maxsus shakllar to'plamidan foydalanib, namunadagi narsalarni yasashni o'rgatish.

Tayoqchalardan to'g'ri to'rtburchak, kvadrat, uchburchak yasashga, bu shakllardan foydalanib turli narsalar yasashga o'rgatish.

Tayoqchalardan hosil bo'lgan geometrik shakllardan bir nechta tayoqchani olish usuli bilan ko'rinishini o'zgartirishga doir muammoli vazifalarni hal etishni o'rgatish.

Maxsus figuralar to'plamidan foydalanib, namunadagi qismlardan tashkil topgan shakl-siluetlar hosil qilishga o'rgatish.

Labirintlar va ularning echimi bilan tanishtirish.

Tevarak - atrofda mo'ljal olish. Bolalarning atrofda narsalarning o'ziga nisbatan vaziyatini so'z bilan ifodalash ko'nikmasini mustahkamlash: o'ngda, chapda, oldinda, orqada, uzoqda, yaqinda.

Bolalarni ko'rsatilgan yo'nalishda mo'ljal olishga, berilgan shart bo'yicha o'z holati o'rnini belgilashga o'rgatish (shunday turginki, mashina o'ng tomoningda, koptok oldingda bo'lsin).

U yoki bu predmetni boshqa bir predmetga nisbatan joylashganligini so'z bilan ifodalashga o'rgatish (kuchukchanning chap tomonida - quyon, kuchukchanning o'ng tomonida - ayiqcha).

Bolalarni qog'oz varag'i sathini mo'ljalga olishga, qog'ozning o'ng, chap, yuqori, past qismlarini, o'rtasini aniqlashga o'rgatish.

Vaqtни chamalash. Bolalarning vaqt haqidagi tasavvurlarini mustahkamlash va chuqurlashtirish: "Ertalab", "Kechqurun", "Kunduz", "Tun", "Kecha",

“Bugun”, “Ertaga” tushunchalarini farqlash va bu soʻzlardan toʻgʻri foydalanish koʻnikmasini mustahkamlash.

Bolalarni hafta kunlari bilan tanishtirish va hafta kunlari nomlarini izchillik bilan aytishga oʻrgatish. Kecha haftaning qaysi kuni boʻlganligini, bugun qanaqa kun, ertaga qaysi kun boʻlishini aniqlashni oʻrgatish.

Bolalarning vaqt haqidagi tasavvurlarini mustahkamlash va chuqurlashtirish. Yil fasllari bilan tanishtirish va fasllarning nomini toʻgʻri ketma-ketlikda aytishga oʻrgatish.

Qurish-yasash. Lego jihozlaridan loyihalar yaratishni, 8-10 qismdan kam boʻlmagan pazllarni yigʻishni va qogʻozlarni bukib (origami yoʻli bilan) shakllar yasashni oʻrgatish.

Qurilish materiallari toʻplamlaridan turli mavzularda loyihalar yaratishga oʻrgatish.

Taʼlimiy oʻyin va mashqlar. Bolalar yil davomida egallagan bilim va koʻnikmalar quyidagi oʻyin mashqlar orqali mustahkamlanadi:

“Kun qismlari”, “Toʻgʻri joylashtir”, “Teskari sanoq”, “Qaerga borasan, nimani topasanq”, “Kecha, bugun, ertaga”, “Topgan-topaloq”, “Butun va qismlar”, “Rangli doiralar va ovallar”, “Hafta”, “Klaster”, “Mozaika”, “Bayroqchaga qarab yur”, “Fasllar”, “Kim bilsa davomini sanasin”, “Bir xilini top”, “Ha-yoʻq”, “Yil fasllari”, “Toping nechta oʻyinchoqq”, “Oʻngda-chapda, oldinda-orqada”, “Qoʻngʻiroqcha qaerda jiringlayaptiq”, “Men qanday son oʻyladimq”, “Garaj”, “Etadimiq”, “Koʻp, oz, shuncha”, “Munchoqlarni ipga tizing”, “SHartli belgilar asosida harakat qilamiz”, “Poezd tuzing”, “Zinapoya”, “Oʻz soningizni eslab qoling”, “Darvozadan oʻting”, “Boshqa qoʻlimda nechtaq”, “Bir-biriga qarab”, “Darchani berkiting”, “Bu kimning qutisiq”, “Kim birinchiq”, “Kim eng topqirq”, “Kim ziyakroqq”.

Oʻquv yili oxirida bola:

- 10 gacha toʻgʻri va teskari tartibda sanay oladi;
- 10 gacha boʻlgan sonni oʻzidan kichik boʻlgan ikkita songa ajrata oladi;

- yonma-yon turgan sonlar orasidagi munosabatlarni tushunadi;
- 10 ichida barmoq, sanoq cho‘pi va buyumlar yordamida qo‘shish va ayirishni biladi;
- “Nechtaq”, “Nechanchiq”, “Sanoq bo‘yicha nechanchi”, “Qanchaq”, “Qaysiq”, “Nechanchisiq” “Jami qanchaq” savollariga javob berib, 10 ichida sanoq va tartib sonlardan to‘g‘ri foydalana oladi;
- soni 10 gacha bo‘lgan ikki guruhdagi buyumlar sonini taqqoslash tenglashtirish, bittaga kamaytirish, bittaga orttirishni biladi;
- qaysi predmet ko‘pligini yoki kamligini 10 tagacha aniqlay oladi;
- uyining nomerini biladi;
- doira, kvadrat, uchburchak, to‘g‘ri to‘rtburchak, ovallarni farqlaydi;
- maxsus shakllar to‘plamidan foydalanib, namunadagi narsalarni yasay oladi;
- tayoqchalardan hosil bo‘lgan geometrik shakllardan bir nechta tayoqchani olish usuli bilan ko‘rinishini o‘zgartirishga doir muammoli vazifalarni hal eta oladi;
- shar, kub va silindrlarni taniydi;
- labirintlarni biladi va ularning echimini topa oladi;
- predmetlarni qanday qismlardan tashkil topganligini, ularning xususiyatlarini (kattaligi, shakli, nomi) farqlaydi,
- butunni 2 ta, 4 ta teng bo‘lakka bo‘lishni biladi, butun bilan qismni taqqoslaydi va farqlaydi;
- predmetlarni (10 tagacha) uzunligi, eni, qalin-yupqaligiga ko‘ra bir-birining ustiga qo‘yib qiyoslaydi, “eng keng”, “torroq”, “yana torroq”, “eng tor”, “qalin”, “yupqaroq”, “bir xil”, “baland”, “past”, “yanada past”, “yanada pastroq”, “eng past” so‘zlarini nutqda to‘g‘ri qo‘llaydi;

- buyumlarni o‘ziga nisbatan o‘rnini aniqlay oladi (tepada - pastda, o‘ngda – chapda, oldinda - orqada), signal bo‘yicha turli yo‘nalishda harakatlanadi (oldinga - orqaga, chapga - o‘ngga);
- qog‘oz varag‘ining o‘ng, chap, yuqori, past, o‘rtasini aniqlay oladi;
- sutka qismlari - ertalab, kunduzi, kechqurun, tunni farqlaydi;
- kecha, bugun, ertani biladi;
- hafta kunlarining nomini, ketma-ketligini, bugun haftaning qaysi kuni ekanligini ayta oladi;
- yil fasllarining nomini biladi;
- pul va uning ko‘rinishi, undagi raqamlar va qiymatni taniydi;
- “lego” jihozlaridan loyihalar yaratish;
- 8-10 ta qismlardan pazllar yasaydi;
- qog‘ozdan buklash yo‘li (origami) orqali sodda shakllarni yasaydi;
- qurilish materiallari to‘plamlaridan turli mavzularda loyihalar yaratadi.

II BOB. MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDA VAQT TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISH USUL VA VOSITALARI.

2.1 Katta guruhda vaqt tasavvurlarini shakllantiruvchi mashg`ulotlar tashkil etish.

Tadqiqot ishi 3 bosqichda olib borildi.

1. Aniqlovchi tajriba-sinoa ishlari

Bu bosqichda ish 2 yo`nalishda olib borildi:

A) nazariy tahlil:

Bunda mutafakkir va ma`rifatparvarlar, pedagoglar, psixologlar asoslari o`rganildi va tahlil qilindi.

B) amaliyotni o`rganish:

Bunda pedagogik jarayon kuzatildi, bolalar bilan so`rovnomalar o`tkazildi.

2. SHakllantiruvchi (bilim beruvchi) tajriba-sinov ishlari.

Bu bosqichda maxsus ishlab chiqilgan metodika asosida 4 ta mashg`ulot, suhbatlar o`tkazildi.

3. Solishtiruvchi tajriba-sinov ishlari. Bu bosqichda bolalarni shakllantiruvchi tajribagacha va undan keyingi bilim darajalari bir-biriga solishtirilib tahlil qilindi.

Tadqiq etilayotgan muammoni amaliyotdagi holatini aniqlash maqsadida aniqlovchi tajriba-sinov ishlari olib borildi. Termiz shahar 23- sonli MTM da tadqiqot ishlari olib borildi. Tajriba-sinov ishida 22 ta tarbiyalanuvchi ishtirok etdi. Tarbiyalanuvchining so`rovnomaga bergan javoblari miqdori jihatdan 1-jadvalda keltirilgan.

Aniqlovchi tajriba 2014 yilning noyabr-dekabr oylarida olib borildi. Aniqlovchi tajribaning maqsadi: muammoni "Katta guruhda vaqt tasavvurlarining shakllanganlik darajasini o`rganish".

Maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi materiallar tayyorlandi:

- 1. Pedagogik jarayonni kuzatish .**
- 2. Tarbiyalanuvchilar uchun so`rovnoma.**

3. Vaqt tasavvurlarini shakllantiruvchi mashg'ulotlar.

Катта гуруҳда вақт тасаввурларини аниқлаш учун (5–6 ёшли)

СЎРОВАНОМА

1. Сутка қисмларини биласизми?.
2. Кеча, бугун, эртага тушунчаларини ажратиб беринг.
3. Ҳафта кунларини айтинг.
4. Ҳафтанинг қайси кунларида дам оламиз?
5. Йил фаслларини биласизми?.
6. Бир йилда нечта фасл бор?
7. Барглар қачон сарғаяди?
8. Қачон совуқ бўлади?
9. Қачон ёмғир кўп ёғади?
10. Кунлар қайси фаслда қизиб кетади?

1- ilova

Sinaluvchi	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	-	+
1.	-	-	-	+	+	+	+	+	+	+	3	7
2.	-	-	+	+	+	+	+	+	+	+	2	8
3.	-	-	-	+	+	+	+	+	+	+	3	7
4.	-	-	+	-	+	+	+	+	+	+	3	7
5.	-	-	+	+	+	+	+	+	+	+	2	8
6.	-	-	-	+	+	+	+	-	+	+	4	6
7.	+	-	+	+	+	+	+	+	+	+	1	9
8.	-	-	+	+	+	+	+	+	-	+	3	7
9.	-	+	-	+	+	+	+	+	+	+	2	8
10.	-	-	+	-	+	+	-	+	-	+	5	5
11.	-	-	-	+	+	+	+	+	+	+	3	7
12.	+	-	+	+	+	-	+	+	+	+	2	8
13.	-	-	-	+	+	+	+	+	+	+	3	7
14.	-	+	+	+	+	+	+	+	+	+	1	9
15.	-	-	+	-	+	+	-	+	+	+	4	6

16.	+	-	+	+	+	+	+	+	+	+	1	9
17.	-	-	-	+	+	+	+	+	+	+	3	7
18.	-	-	+	+	+	+	+	+	+	+	2	8
19.	-	-	-	+	+	+	+	+	+	+	3	7
20.	-	-	+	+	+	+	+	+	+	+	2	8
21.	-	-	-	+	+	+	+	+	+	+	3	7
22.	-	-	+	+	+	+	-	+	-	+	4	6
To`g`ri javob %	13 %	9 %	60 %	86 %	100 %	96 %	87 %	96 %	91 %	100 %		
noto`g`ri javob %	87 %	90 %	40 %	14 %	-	4 %	13 %	4 %	9 %	-		

Jadvaldan ko`rinib turibdiki, birinchi Sutka qismlarini bilasizmiq savoliga 13% ya'ni 3 nafar sinaluvchi to`g`ri javob bergan , 87 % ya'ni 19 nafar sinaluvchi javob bera olishmagan. ikkinchi - Kecha, bugun, ertaga tushunchalarini ajratib beringq savoliga 9 % ya'ni 2 nafar sinaluvchi to`g`ri javob bergan , 90 % ya'ni 20 nafar sinaluvchi javob bera olishmagan, uchinchi - Hafta kunlarini aytingq savoliga 60% ya'ni 11 nafar sinaluvchi to`g`ri javob bergan , 40 % ya'ni 9 nafar sinaluvchi javob bera olishmagan, to`rtinchi - Haftaning qaysi kunlarida dam olamizq - savoliga 86 % ya'ni 17 nafar sinaluvchi to`g`ri javob bergan , 14 % ya'ni 3 nafar sinaluvchi javob bera olishmagan, qolgan savollarga javoblar yuqori foizda berilgan.

So`rovnoma natijasiga ko`ra vaqt tasavvurlari tushunchalaridan eng past foiz javob berilgan savollarni hisobga olib , innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib mashg`ulotlar tashkil etdik.

Mashg`ulotlar ishlanmasi 2- ilovada.

Vaqt haqida tasavvur.

Mavzu: Ertalab , kunduzi , kechqurun , tun kabi tushunchalarni mustahkamlash va chuqurlashtirish.

Maqsad:

- Bolalarning vaqt haqidagi tushunchalarini mustahkamlash.

Kutilayotgan natijalar:

- Bolalarning sutka qismlari haqidagi tushunchalari kengayadi.
- Bolalar nutqda sutka qismlari : ertalab , kunduzi , kechqurun , tun so'zlarini ma'nosini tushungan holda to'g'ri qo'llaydilar.

Kerakli jihozlar:


- Sutka qismlarini tasvirlovchi rangli qog'ozlar (O'lchami : bo'yi 10 sm , eni 10 sm)
- Sutka qismlarini tasvirlash uchun doira (diametric 12 sm)
- Sutka qismlari tasvirlangan suratlar (bo'yi 8 sm, eni 8 sm)

Mashg'ulotning borishi:

Tarbiyachi: Bolajonlar, bizlar ertalab , kunduzi , kechqurun haqida sizlar bilan oldin ham gaplashganmiz.

Shuning uchun hozirgi savollarimga qiynalмай javob berasizlar . Mana .mening qo'limda 3 - xi loch pushti rang , sariq va to'q ko'k rangdagi qog'ozlar.


1. Och pushti rang kunning qaysi vaqtiga o'xshaydi?
(Ertalabga)
2. Ko'k rang kunning qaysi vaqtiga o'xshaydi?
(Kechqurunga)
3. Sariq rang kunning qaysi vaqtiga o'xshaydi?
(Kunduzga)
4. Bolajonlar , mana bu qora rangni qaysi vaqtga o'xshatish mumkin?
(Bolalarning javobi)



Tarbiyachi: To'g'ri tunga o'xshaydi . Bolajonlar , biz hozir ertalab , kunduzi , kechqurun va tun haqida gaplashdik.Ertalab , kunduzi , kechqurun va tun - hammasi birgalikda 1 sutkani hosil qiladi .Hozirgi gapimda sizlarga notanish bo'lgan qanday so'zni ishlatdim? To'g'ri , sutka so'zini ishlatdim . Ertalab , kunduzi , kechqurun va tun – bular sutkaning qismlari ekan. Sutka har doim shu qismlardan iborat . Ertalabdan keyin Kunduz keladi , kunduzdan keyin kechqurun , kechqurundan keyin tun , tundan keyin ertalab keladi.

Bolalar uchun amaliy ish.

Tarbiyachi: Bolajonlar , “ Sutka qismlari “ deb nomlangan doirani 4 ta qismini sutka qismlariga mos ranglarga bo'yang.



Bolalar ishni tugatganlaridan so'ng , tarbiyachi ulardan o'z rasmlarini ko'rsatib sutka qismlaridan qaysini qanday rangga bo'yalganligini aytib berishni so'raydi.

Tetiklashtiruvchi mashq.

Tarbiyachi: Bolajonlar , hozir sizlar bilan “ sutka” o'yinini o'ynaymiz. Men “ Kun” desam turasiz , “ Tun” desam o'tirib ko'zlaringizni yumasiz , “ Ertalab” desam turib , yuvinish harakatini bajarasiz , “ Kechqurun” desam raqsga tushasiz.

Bilimlarni mustahkamlash uchun o'yin : “ Tog'ri joylashtir” .

Bolalar yoniga Bilmasvoy keladi. Bolalar bilan salomlashadi. Tarbiyachi nega u g'amgin ekanligini soraydi. Bilmasvoy rasmlar olib kelganini , bolalarga tartibi bilan : sutka qismlarini ko'rsatmoqchi ekanini , ammo hammasini aralashtirib yuborganini, ularni to'ri joylashtira olmayotganini aytadi. Tarbiyachi rasmlarni tartibga solishda Bilmasvoyga yordam berishni taklif qiladi. Bolalardan rasmlarni qanday joylashtirish kerakligini so'raydi.



Sutka qismlari tasvirlangan rasmlar to'plami ichidan bolalar bir sutkaga tegishli qismlarni tartib bilan yig'adilar.



Tarbiyachi bolalarning juda aqlli ekanligini ta'kidlab , sutka qismlari ketma – ketligini ularning istalganidan boshlab tartib bilan qo'yib tushuntirib bera olishini aytadi . Bolalar Bilmasvoyga o'rgatish maqsadida sutka qismlarini istalgan vaqtidan boshlab yig'ib tushuntirib beradilar.

Bolalar bilimini tekshirish va mustahkamlash uchun savollar :

1. Ertalab , kunduzi , kechqurun va tunni birgalikda qanday atashimiz mumkin?
2. Bir sutkada qanday qismlardan tashkil topadi?
3. Bir sutka davomida qanday ishlarni qilish mumkin?
4. Kunduzdan keyin sutkaning qaysi vaqti keladi?
5. Tundan keyin sutkaning qaysi vaqti keladi ?

Mashg'ulotdan yakunida bolalarni rag'batlantirish.

Mashg'ulot ishlanma

Vaqt haqida tasavvur

Mavzu: Kecha, bugun, ertaga tasavvurlarni mustahkamlash.

Maqsad:

- Bolalarda kecha, bugun, ertaga tasavvurlarni kengaytirish.
- Bolalar nutqida “kecha”, “bugun”. “ertaga” so'zlarini farqlashga o'rgatish.

Kutilayotgan natijalar:

- Bolalar ongida “kecha”, “bugun”, “ertaga” tasavvurlari kengayadi.
- Bolalar nutqida “kecha”, “bugun”, “ertaga” so'zlarini o'rganib oladilar.

Kerakli jihozlar:

- Koptok
- Har bir bola uchun oq qog'oz, har xil rangdagi qalamlar va o'chirg'ich.

Mashg'ulotning borishi:

Tarbiyachi: Aziz bolajonlar, sizlar bilan oldingi mashg'ulotlarda ham vaqt haqida gaplashganmiz. Bugungi mashg'ulotimiz ham aynan vaqt tasavvurlari haqida. Qani bolajonlar bugun kim navbatchi? Qo'lini ko'tarsin-chi? (...) Kecha kim navbatchi edi(...) Barakalla bolajonlar! Bolajonlar, kecha (...) navbatchi edi, yomg'ir ham yog'di, bularning hammasi “kecha” bo'lib o'tdi. Endi ularni oqaga

qaytarib bo'lmaydi. Misoli oqar suv misoli oqib ketdi. Bolajonlar ariqdagi suvni orqaga oqqanini ko'rganmisizlar? (bolalar javobi)Xa barakalla, hech qachon teskari oqmaydi. Kecha bo'lib o'tgan kunimizni ham orqaga qaytarib bo'lmaydi. Bolajonlar kecha sizlarni bog'chadan kim olib ketdi? Qani hammamiz bitta-bitta qo'lini ko'tarib javob bersinchi? Bugun esa navbatchi(...), quyosh ham charaqlab turibdi. Bularning hammasi biz bugun ertalab uyg'onganimizdan keyin ro'y berayapti. Ya'ni biz ertalab uyg'onganimizdan boshlab qorong'u tushib biz uyquga ketgunimizgacha bo'lgan voqea-hodisalar "bugun"da ro'y beradi! Bolajonlar sizlar bilan birgalikda "kecha" bilan birgalikda "bugun"ni ham o'rganib oldik, to'g'rimi bolajonlar. (bolalarning javobi). Bolajonlar bugun bog'chaga sizlarni kim olib keldi? Qani bolajonlar navbat bilan javob beringlar-chi? Endi esa sizlar bilan "ertaga" haqida gaplashamiz. Hammamiz bilamiz-ki, "kecha" osmon bulut bo'lib yomg'ir yog'di. "Bugun"esa quyosh charaqlab ketdi. "Ertaga" esa nima bo'lishini hech kim bilmaydi. Ertaga balki yomg'ir yog'ib qolishi mumkin. Yoki bo'lmasa aksincha quyosh charaqlab ketishi mumkin. Shuning uchun ham "Ertaga" haqida aniq bir narsa deyolmaymiz.

Rasm





Bolalar, kelinglar, sizlar bilan **“Qaysi kun”** o‘yinini o‘ynaymiz. Hammamiz doira shaklida turamiz. Men esa o‘rtaga turib qo‘limdagi ko‘ptokni xohlagan bolaga otib uchta gapdan birini aytaman, ya‘ni **“BULUT”**, **“QUYOSH”**, **“BILMADIM”** deya so‘zlardan birini ko‘ptokni ilib olgan bolaga aytaman. U **“BULUT”** deganimda **“kecha”**, **QUYOSH”** deganimda **“bugun”**, **“BILMADIM”** deganimda esa **“ertaga”** deya javob berishi kerak. O‘yin paytda so‘zlarni adashtirgan bolalar o‘yindan chiqib ketadi. O‘yin oxirida qolgan ishtirokchimizni **“g‘olib”** deb atab uni yulduzcha bilan rag‘batlantiramiz.

Bolalar uchun amaliy ish.

Tarbiyachi: Kelinglar bolalar, bugun sizlar bilan quyosh va bulutni rasmini chizamiz. Hozir sizlarga har biringizga bittadan qog‘oz tarqatib chiqaman. Qog‘ozni yarmiga bulutni, yarmiga esa quyoshni chizamiz. Rasmni chizib bo‘lgandan keyin ularni birgalashib bo‘yab chiqamiz. Rasmimiz tayyor bo‘lgandan keyin hammamiz birgalikda uni izohlab chiqamiz. Keyin esa rasmlarni ko‘rib chiqib eng chiroyli rasmni chizgan bolani rag‘batlantiramiz.

Tetiklashtiruvchi mashq.

Tarbiyachi: Bolalar, sizlar bilan hozir dam olish daqiqasini o‘tkazamiz.

Chizib charchab qo‘limiz,

Tolib qolar ko‘zimiz.

Boshimiz qo‘yib asta,

Dam olamiz ohista.

10	-	+	+	+	+	+	+	+	+	+	1	9
11	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	-	10
12	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	-	10
13	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	-	10
14	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	-	10
15	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	-	10
16	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	-	10
17	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	-	10
18	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	-	10
19	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	-	10
20	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	-	10
21	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	-	10
22	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	-	10
To`g`ri javob %	100 %	100 %	100 %	100 %	100 %	100 %	100 %	100 %	100 %	100 %		
noto`g`ri javob %	- %	- %	- %	- %	- %	- %	- %	- %	- %	- %		

So`rovnoma savollari - Sutka qismlarini bilasizmiq, kecha, bugun, ertaga tushunchalarini ajratib bering, hafta kunlarini ayting, haftaning qaysi kunlarida dam olamizq, yil fasllarini bilasizmiq, bir yilda nechta fasl borq, barglar qachon sarg`ayadiq qachon sovuq bo`ladiq, q achon yomg`ir ko`p yog`adiq kunlar qaysi faslda qizib ketadiq, barchasiga sinaluvchilarimiz to`g`ri va aniq javob berishdi, natija yuqori 100 % (foizni) tashkil etdi. MTM larda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo`llash, turli xil ko`rgazmali vositalar, didaktik o`yinlarni qo`llash samarali natija berishini tajriba jarayonida ko`rindi. Tadqiqotimizda oldimizga qo`ygan maqsadga erishdik.

Xulosa va tavsiyalar.

Bitiruv malakaviy ishimizni nazariy va amaliy jihatdan o`rganilgan darajasiga ko`ra quyidagi xulosaga keldik.

1. Mashg`ulotlarda pedagogik texnologiyalar , didaktik uyinlar hamda o`yin-mashklardan keng foydalanib bolalarning matematik tasavvurlarini mustahkamlash, chukurlashtirish va kengaytish natijasiga ega bo`ldik.
2. Mashg`ulotlarda bolalarning aktiv faoliyati birinchi navbatda yangi material ustida ishlashni hamda ilgari o`tilgan materialni takrorlashni birga to`g`ri qo`shib olib borish bilan ish turlarini va uni tashkil etish usullarini almashtirib turish samarali natija beradi.
3. Matematik bilim berishdan kuzatilgan amaliy maqsadlar bolalarning nazariyani amaliyotga bog`lay olishidan, ya`ni olingan bilimlarni amaliy masalalarni hal qilishga, bolalar to`plam va son haqida, kattalik (miqdor)larning bir-biriga nisbati haqida, eng oddiy geometrik shakllar haqida boshlang`ich tasavvurga ega bo`ladilar, joy va vaqtni bilishni o`rganadilar: bolalar olgan bilimlarini o`zlarining kundalik mehnat va o`yin faoliyatida va maishiy hayotida uchraydigan matematikaga doir savol va masalalarni hal qilishga tatbiq eta bilish malakalarini hosil qilish kerak.
- 4 Bolalarda matematik bilimlarga bo`lgan qiziqish, matematik xarakterdagi masalalarni sabr toqat va tirishqoqlik bilan echish ko`nikmalari rivojlantiriladi.
5. Bordi-yu, matematik tushunchalar bola uchun qiziqarli va tushunarli qilib tashkil etilsa, bolalar o`zlashtirishi , bilim , malaka , ko`nikmalar tez shakllanadi.

Tavsiyalar

Bitiruv malakaviy ishimiz xulosasiga asoslangan xolda quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqdik.

1. Bola maktabga borgunga kadar unda matematik tasavvurlarni shakllantirish uchun MTMdagi barcha o`quv-tarbiya ishlari bilan o`zviy ravishda bog`lab maxsus ish olib borish zarur.

2. Matematik bilimlar bolalarga ma'lum sistema va izchillikda berilishi, bunda yangi bilim kamroq mikdorda, ya'ni bolalar o'zlashtirib oladigan darajada bo'lishi kerak.
3. Tarbiyachi xar bir yosh gruppasining dastur kandy tuzilganini, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda boshlang'ich matematik tasavvurlarni o'stirish yuzasidan olib boriladigan barcha ishlar har bir mashg'ulotning kandy muxim rol o'ynashi va o'rin egallashini bilishi lozim
4. Dastur vazifalarining ko'pchilik kismi mashg'ulotlarda hal kilinadi. Bolalarda ma'lum izchillikda tasavvurlar shakllantirish uchun pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarur.
5. Mashg'ulotlarda didaktik uyinlardan xamda o'yin-mashklardan keng foydlanish, mashg'ulotlardan tashqari vaktlarda uyinlar tashkil kilib, bolalarning matematik tasavvurlarini mustaxkamlash, chukurlashtirish va kengaytish zarur.
6. MTM larni oliy ma'lumotli mutaxassislar bilan ta'minlash hamda mashg'ulotlar innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib tashkil etilishi samarali natija beradi.
7. MTM larni darsliklar, didaktik materiallar, ko'rsatma qo'llanmalar va texnik vositalar bilan ta'minlash lozim.





Сўровномани ўтказиш жараёни





“Йил фасллари” ни ўргатиш бўйича олиб борилган машғулот жараёни.





“Кеча, бугун, эртага “ тушунчаларини ажратиш машғулотини олиб бориш жараёни.





“Сутка қисмларини” фарқлашга ўргатиш машғулотида.



